

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIK VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT FAKULTETI
FERMER XO'JALIGINI BOSHQARISH VA YURITISH
TA'LIM YO'NALISHI**

Qishloq xo'jaligida menejment kafedrası

« T A S D I Q L A Y M A N »

fakultet dekani _____

i.f.n.dotsent, X.Komolov

« ____ » _____ 2016-yil

«Ximoyaga ruxsat etaman»

kafedra mudiri _____

dotsent O.Maxmudov

« ____ » _____ 2016-yil

**Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish ta'lim yo'nalishining bitiruvchisi
Dadaboyev Sherzodbekning**

BITIRUV
MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Izboskan tumanidagi "Izboskan xirmoni baraka" fermer xo'jaligida mexnat unumdorligini oshirishning rivojlantirish istiqbollari.

BMI raxbari:

Maslaxatchi:

Bajaruvchi:

A.Sarimsaqov

i.f.n. dotsent O.Maxmudov

Dadaboyev Sherzodbek

Andijon – 2016

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIK VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
IQTISODIYOT VA BOSHQARUV FAKULTETI
QISHLOQ XO'JALIK IQTISODIYOTI VA BOSHQARUV
KAFEDRASI

“T A S D I Q L A Y M A N”
Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va
boshqaruv kafedrasining mudiri
dotsent. O.Shermatov _____
«_»_____2015-yil

**Fermer xo'jaligini boshqarish ta'lim yo'nalishining bitiruvchisi
Dadaboyev Sherzodbekga bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun**

TOPSHIRIQ

- 1.Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:** *institut rektorining 2015-yil 18-sentyabrdagi №240-St(A) buyrug'i bilan tasdiqlangan.*
- 2.BMIning mavzusi:** *Izboskan tumanidagi “Izboskan xirmoni baraka” fermer xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirishning rivojlantirish istiqbollari.*
- 3.Bitiruv malakaviy ishni tugatish vaqti** *«16» may 2016-yil.*
- 4.Bitiruv malakaviy ishning asosiy bo'limlari.***BMI kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar xamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.*
- 5.Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun kerakli ma'lumotlar.***O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jaligida iqtisodiy isloxlarni o'tkazishga oid bo'lgan qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, I.A.Karimov asarlari, mavzuga oid maxsus adabiyotlar, xamda Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligining 2013-2015 yillar uchun biznes rejalari, yillik xisobotlari va mavzuga oid bo'lgan boshqa ma'lumotlari.*
- 6.Bitiruv malakaviy ishda foydalaniladigan jadvallar.***Bitiruv malakaviy ishida mavzuning mohiyatini yoritishga yordam beradigan 8-10 ta jadvallarni to'zilishi ko'zda tutilgan bo'lib, ulardan 3 tasi bevosita himoya jarayonida foydalaniladi.*

Bitiruv malakaviy ishning asosiy savollari	BMIn raxbari	Bajarilish muddati	Imzo
<i>Kirish</i>	<i>A.Sarimsaqov</i>	<i>21.12.2015y</i>	
<i>1-Bob: Mexnat unumdorligini nazariy va uslubiy asoslari</i>			
1.1.Fermer xo'jaligida mexnat unumdorligi oshirishni ilmiy nazariy asoslari.	<i>A.Sarimsaqov</i>	<i>30.01.2016y</i>	
<i>1.2.Fermer xo'jaliklarida mexnat unumdorligini oshirishni usubiy asoslari.</i>	<i>A.Sarimsaqov</i>	<i>27.02.2016y</i>	
<i>2-Bob: "Izboskan xirmoni baraka" fermer xo'jaligida mexnat unumdorligini iqtisodiy ko'rsatkichlarini hozirgi xolatini taxlili</i>			
<i>2.1.Izboskan tumanidagi "Izboskan xirmoni baraka" fermer xo'jaligining tabiiy-iqtisodiy sharoitlarini hozirgi xolati.</i>	<i>A.Sarimsaqov</i>	<i>10.03.2016y</i>	
<i>2.2.Izboskan tumanidagi "Izboskan xirmoni baraka" fermer xo'jaligining iqtisodiy ko'rsatkichlari taxlili.</i>	<i>A.Sarimsaqov</i>	<i>24.03.2016y</i>	
<i>3-Bob: "Izboskan xirmoni baraka" fermer xo'jaligida agrotexnologiyani qo'llash natijasida mexnat unumdorligini oshirishni yo'llari va omillari</i>			
<i>3.1.Izboskan tumanidagi "Izboskan xirmoni baraka" fermer xo'jaligida samarali agrotexnologiyalarni qo'llash.</i>	<i>katta o'qituvchi I.Ro'ziyev</i>	<i>15.04.2016y</i>	
<i>3.2.Izboskan tumanidagi "Izboskan xirmoni baraka" fermer xo'jaligida mexnat unumdorligini oshirish omillari.</i>	<i>A.Sarimsaqov</i>	<i>30.04.2016y</i>	
<i>Xulosa va takliflar.</i>	<i>A.Sarimsaqov</i>	<i>08.05.2016y</i>	
<i>Foydalanilgan adabiyotlar.</i>	<i>A.Sarimsaqov</i>	<i>16.05.2016y</i>	

Topshiriq berilgan vaqti:
BMI raxbari:
Maslaxatchi:
Bitiruvchi:

21-sentyabr 2015-yil.
A.Sarimsaqov
i.f.n. dotsent. O.Maxmudov
Sh.Dadaboyev

M u n d a r i j a

<i>№</i>	<i>Mazmuni</i>	<i>Betlar</i>
	<i>Kirish</i>	
<i>1-Bob: Mexnat unumdorligini nazariy va uslubiy asoslari</i>		
<i>1.1.</i>	Fermer xo'jaligida mexnat unumdorligi oshirishni ilmiy nazariy asoslari.	
<i>1.2.</i>	<i>Fermer xo'jaliklarida mexnat unumdorligi, uni oshirish omillari.</i>	
<i>2-Bob: "Izboskan xirmoni Baraka" fermer xo'jaligida mexnat unumdorligini iqtisodiy ko'rsatkichlarini hozirgi xolatini taxlili</i>		
<i>2.1.</i>	<i>Izboskan tumanidagi "Izboskan xirmoni baraka" fermer xo'jaligining tabiiy-iqtisodiy sharoitlarini hozirgi xolati.</i>	
<i>2.2.</i>	<i>Izboskan tumanidagi "Izboskan xirmoni baraka" fermer xo'jaligining iqtisodiy ko'rsatkichlari taxlili.</i>	
<i>3-Bob: "Izboskan xirmoni baraka" fermer xo'jaligida agrotexnologiyani qo'llash natijasida mexnat unumdorligini oshirishni yo'llari va omillari</i>		
<i>3.1.</i>	<i>Izboskan tumanidagi "Izboskan xirmoni baraka" fermer xo'jaligida samarali agrotexnologiyalar ni qo'llash.</i>	
<i>3.2.</i>	<i>Izboskan tumanidagi "Izboskan xirmoni baraka" fermer xo'jaligida mexnat unumdorligini oshirish omillari.</i>	
	<i>Xulosa va takliflar.</i>	
	<i>Foydalanilgan adabiyotlar.</i>	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Fermerlarimizning ongu tafakkurida o'z yeri va ishlab chiqarayotgan mahsulotiga nisbatan egalik hissiyoti yildan-yilga tobora mustahkamlanib, ularning o'z mehnati natijasidan manfaatdorligi oshib bormoqda. So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar fermer xo'jaliklari vakolatlarini sezilarli ravishda kengaytirdi. Qishloq xo'jaligida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri bu ishlab chiqarishni jadal usulda rivojlantirishdir. Prezidentimiz ta'kidlanishicha jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishi iqtisodiyotni barqarorlashtirishning asosiy omiliga aylandi.

Xozirgi kunda fermer ho'jaliklarini jadal rivojlantirish uchun ularni iqtisodiy jihatdan baquvvat qishoq ho'jalik korxonasiga aylantirish darkor. Bu soxadagi ishlar qishloq ho'aligida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Respublikamizda 2015-yilning yakunlari haqida gapirganda, avvalo, o'tgan yilda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgani, modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan Yuqori sur'atlar bilan rivojlanganini qayd etamiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,0 foizga, qishloq xo'jaligi – 7.04 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 5,8 foizni tashkil etdi. Prezidentimiz ta'kidlanishicha xozirgi kunda fermer ho'jaliklarini jadal rivojlantirish uchun ularni iqtisodiy jihatdan baquvvat qishoq ho'jalik korxonasiga aylantirish darkor. Bu soxadagi ishlar qishloq ho'aligida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. 2016 yilning asosiy yo'nalishlari haqida gapirganda, joriy yilda O'zbekiston iqtisodiyoti va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishning ko'rsatkichlari avvalo Yuqori va izchil o'sish sur'atlarini saqlash, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlashga qaratilganini ta'kidlash lozim. Ta'kidlash kerakki, mazkur tarmoqda xo'jalik yuritishning fermerlik tizimiga o'tilishi munosabati bilan fermerlar uchun ijara

mulki huquqi asosida ajratiladigan yer maydonlarini optimallashtirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.¹ Bu tadbirni amalga oshirish, birinchi navbatda, sug'oriladigan dehqonchilik Sharoitida, suv taqchilligi va yerlarning aksariyat qismi kuchli sho'rlangan bir vaziyatda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va qishloq tumanlarida ekin maydonlari amalda tuproq unumdorligi va yer boniteti bo'yicha keskin farq qilishi bilan bog'liq. yer maydonlarining optimallashtirilishi natijasida 17 ming 500 dan ortiq yangi fermer xo'jaligi va 250 mingdan ziyod ish o'zni tashkil etildi. 2020-yilgacha paxta xomashyosini yetishtirish va uni davlat tomonidan xarid qilish hajmini 3 million 350 ming tonnadan 3 million tonnaga bosqichma-bosqich qisqartirish masalasi ko'rilmogda. Paxta yetishtirish hajmini 350 ming tonnaga qisqartirish hisobidan 170 ming 500 gektar sug'oriladigan yer paxtadan bo'shaydi. Bu jarayonda, albatta, avvalo mamlakatimiz bo'yicha paxta hosildorligi gektaridan o'rtacha 26,1 tsentnerni tashkil etib turgan bir paytda hosildorligi 12-15 tsentnerdan oshmaydigan past bonitetli yerlarni paxtadan bo'shatishga e'tibor qaratiladi. Asosan sho'rlangan, Shuningdek, paxta yetishtirishga yaroqsiz bo'lgan tog'oldi yerlariga g'o'za ekilmaydi. Paxtadan bo'shagan ekin maydonlarida avvalo, sabzavot va kartoshka, shular qatorida ozuqa ekinlari, yog'-moy olinadigan va boshqa o'simliklar ekiladi, bog' va uzumzorlar barpo etiladi. yekin maydonlarining optimallashtirilishi va zamonaviy agrotexnologiyalarning joriy etilishi natijasida 2020-yilda boshoqli don yetishtirishni 16,4 foizga oshirib, uning hajmini 8 million 500 ming tonnaga yetkazish, kartoshka yetishtirishni 35 foizga, sabzavotni 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foiz, go'sht yetishtirishni 26,2 foizga, sutni 47,3 foiz, tuxumni – 74,5 foizga ko'paytirish, baliq yetishtirishni 2,5-martaga oshirish ko'zda tutilmogda. Fermer va dexqon xo'jaliklari xususiy mulkchilikka asoslangan xususiy tadbirkorlikning shakllari xisoblanib ular o'zlarining ijtimoiy iqtisodiy mohiyati jixatidan bir-biridan farq qilmaydilar. Ular o'rtasidagi barcha tafovutlar oxir-oqibat

¹ .O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.16.01.2016

ularga biriktiriladigan yer uchastkalarining Yuqori darajasi belgilangan bo'lsa, fermer ho'jaliklariga aksincha, ularning qo'yi darajasi Cheklangan. Demak, istiqbolda fermer ho'jaliklarini rivojlanishi uchun amaldagi huquqiy me'yoriy xujatlar asosida keng yo'l bilan berilgan.

Jadal rivojlantirish jarayoni nafaqat gektar xisobiga qo'shimcha maxsulotning o'sishini bildiradi, balki ulardan samarali foydalaganli gini ham bildiradi.

Qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, yer moddiy texnika va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, hamda mayishiy va iqtisodiy sharoitlarini to'la xisobga olishni talab qiladi. Nazariy jihatidan xar qanday kapitalni qo'yish mumkin, lekin bu o'z-o'zidan ma'lumki, bu mamlakatda shu payitda barcha Sharoitlar, ya'ni iqtisodiy, texnikaviy, madaniy va boshqalar mavjud bo'lishiga bog'liq. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga sariflanadigan xarajatlar oqilona sariflanish kerakki, bunda ho'jalik xar bir-biri qo'imcha xarajatga nisbatan ko'proq maxsulot va maksimum foyda olish kerak.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilinganda, biz tanlagan mavzu hozirgi kunda ilmiy va amaliy tadqiqotlarni talab qiluvchi dolzarb masala hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish yo'llarini ahamiyatini asoslash va Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida bo'yicha fikr-mulohazalarni, xulosalarni va takliflarni ishlab chiqishdir. Asosiy maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviy ishida quyidagi asosiy vazifalar rejalashtirilgan:

1. Fermer xo'jaligida mehnat unumdorligi oshirishni ilmiy nazariy asoslari ahamiyatini asoslash.

2. Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligi faoliyatini o'rganish va tahlil etish asosida mehnat unumdorligini oshirishni hozirgi xolatini o'rganish va tahlil etish asosida iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

3. Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida mexnat unumdorligini oshirish yo'llari va omillarini tahlil qilib, bu bo'yicha fikr-mulohazalarni, xulosalarni va takliflarni ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida bildirilgan fikr va mulohazalardan, qilingan xulosalardan va berilgan takliflardan Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida xo'jaligida mexnat unumdorligini oshirish bo'yicha Chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin. BMI da bildirilgan fikr-mulohazalardan bundan tashqari ushbu hududda joylashgan va ixtisosligi mos keladigan boshqa fermer xo'jaliklarida ham foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3bob, xulosa va takliflar xamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslanib, bitiruv malakaviy ishini maksadi, vazifalari va uning tarkibi asoslangan. Asosiy qismda, paxtachilik tarmog'ini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari keltirilib, Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida mexnat unumdorligini oshirish masalalari o'rganilib, tahlil etilgan. Ishning xulosa qismida bo'yicha Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida mexnat unumdorligiga ta'sir e'tiuvchi omillaridan foydalanish bo'yicha fikr-mulohazalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatiga mavzuga oid bo'lgan qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda I.Karimov asarlari, maxsus o'quv va ilmiy adabiyotlar, fermer xo'jaligining oxirgi uch yillik hisobotlari va fermer xo'jaligining biznes rejalari kiritilgan. Bitiruv malakaviy ishi -- betni tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishini yoritishda -- ta jadvallar va ---ta chizmadan foydalanildi.

1bob:Mexnat unumdorligini nazariy va uslubiy asoslari.

1.1.Fermer xo'jaligida mexnat unumdorligi oshirishni ilmiy nazariy asoslari.


Mehnat faoliyatining maksadi biror natijaga erishish, masalan, maxsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishdan iboratdir. Xar kanday xodim yoki ularning guruxi uchun natija samaradorligi, ya'ni vakt birligi — soat, kun, yil mobaynida ishlab chiqarilgan maxsulot, ko'rsatilgan xizmat miqdori muxim ahamiyatga ega. Bu natija qancha yuqori bo'lsa, uning birligiga sarflangan xarajat, shu jumladan, xona, bino uchun ijara xaki elektr kuvvatidan foydalanish xaki va shu kabilar Shunchalik kamrok bo'ladi. Binobarin, mehnat unumdorligi yuqori, maxsulot xajmi kuprok bo'lsa, uning xarajatlari kamrok bo'ladi. Mehnat samaradorligi maxsuldorligi mehnat ko'rsatkichi bilan o'lchanadi.

Mehnat unumdorligi — xodimlar mehnat faoliyatining iktisodiy samaradorligi ko'rsatkichidir. U ishlab chiqarilgan maxsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar miqdorining mehnat xarajatlarga nisbatan, ya'ni mehnat xarajatlari birligi xisobiga ishlab chiqarilgan maxsulot bilan belgilanadi.

Fermer xo'jaligini rivojlanishi va uning barcha a'zolari farovonligi darajasi mexnat unumdorligi darajasi xamda o'sishiga bog'likdir. Mexnat unumdorligi darajasi ishlab chikarish usulini xam, xatto ijtimoiy- siyosiy tuzumning o'zini xam ifoda etadi.

Iktisodiyot fanida **mexnat samaradorligi** tuShunchasi xam mavjud. U mexnat unumdorligi tuShunchasiga qaraganda kengroq bo'lib, iktisodiy (ya'ni mexnat unumdorligi) kategoriyadan tashqari psixofiziologik va ijtimoiy omillarni xam qamrab oladi.

Mexnatning ruxiyfiziologik samaradorligi mexnat jirayonining inson organizmiga ta'siri orkali aniklanadi. SHu nuktai nazardan fakat muayyan unumdorlik bilan bir katorda zararsiz, qulay sanitariya-gigiyena Sharoitlari ta'minlangan, xodimga ishlab chikarish salbiy ta'sirining oldi olingan, uning jismoniy va aqliy saloxiyatini va qobiliyatini oshiradigan mazmunli mexnatgina samarali xisoblanishi mumkin.



Manba. Mexnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi darslik. K.Abduraxmonov

Bundan mexnatning ijtimoiy samaradorligi tuShunchasi moxiyati xam anglanadi. Bu kategoriya xar bir xodim shaxsini uygun rivojlantirish, uning malakasi va maxoratini, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, turmush tarzini takomillashtirish, mexnat jamoasida ijobiy muxitni shakllantirish va saqlab turish talablarini qamrab oladi (1-rasm).

Mexnat unumdorligi mexnatning intensivligi va ish vaqti nominal fondidan foydalanish tuShunchalari bilan uzviy bog'liqdir.

Mexnat intensivligi xodimning ish vaqti birligida asab va mushak sarfi bilan o'lchanadi. Bunda inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan xamda energiya sarfi to'laqonli ovqatlanish, dam olish va xissiy yengil tortish xisobiga to'la

qoplanadigan mexnat intensivligi ijtimoiy jixatdan me'yorli xisoblanadi.

Ish vaqtidan foydalanish mazkur ish turi uchun o'rnatilgan nominal ish vaqti fondiga (ish kuni, ish xaftasi, oyi, yili uchun) ishlangan vaktga (belgilab ko'yilgan tanaffuslarni xam ko'shib xiooblaganda) nisbati sifatida aniklanadi. Bu ko'rsatkichlarning indeksli alokadorligi quyidagi formula asosida aniklanadi:

$$I_{mu} = I_{mku} I_{int} I_{ivf}$$

bunda: I_{mu} — mexnat unumdorligi indeksi;

I_{mku} - mexnat kuchi unumdorligi indeksi;

I_{int} - mexnat intensivligi indeksi;

I_{ivf} - ish vaqtidan foydalanish indeksi.

Mexnat unumdorligining indikatorlarini aniklashga turlicha yondashuvlar bor. Amaliyotda bu indikatorlarni tanlash, birinchidan, u yoki bu ishlab chikarishdagi mexnat unumdorligining dprajasiga, ikkinchidan, mexnat unumdorligini anikdash bo'icha xo'jalikning iktisodiy xizmati oldiga quyilgan vazifaga bog'likdir.

Mexnat unumdorligini o'lchash darajasi bo'yicha bir turdagi maxsulot ishlab chikariladigan shaxsiy ish joylarini (brigada, uchastkalar) ajratib ko'rsatish mumkin. Mazkur xolatda ishlab chikarilgan maxsulot xajmi va mexnat unumdorligini aniqlashning **natura usulini** (dona, tonna, kub metr va xokazolar) ko'llash maksadga muvofikdir. Lekin, odatda, fakat bir xil maxsulotlar ishlab chikariladigan ish joylari kam uchraydi. SHu sabablii amaliyotda **Shartli-natura usulidan** foydalaniladi.

Mazkur usulda anik bir Sharoit uchun ko'llansa bo'ladigan ishlab chikarish xajmlarini xisoblab chikish ancha murakkabdir. Ma'lumki, ishlab chikarish xajmlarini o'lchashda eng ko'p Yalpi, tovar va realizatsiya kilingan maxsulot xajmi ko'rsatkichlari ishlatiladi. Lekin ulgurji narxlar bir xil bo'lganda korxona usulida xisoblab chikilgan **Yalpi maxsulot** tugallanmagan ishlab chikarish koldaklari mikdoriga ko'ra **tovar maxsulotidan, realizatsiya qilingan maxsulot** esa tovar maxsulotidan (realizatsiya qilishga muljalangan, lekin realizatsiya⁴ kilinmagan koldik miqdoriga) fark kiladi. Bundan mexnat unumdorligi darajasini Yalpi maxsulot xajmiga

karab xisoblash anikrok bo'ladi degan xulosa chikarish mumkin.

Biroq bozor iktisodiyoti Sharoitlarida mexnat unumdorligini realizatsiya kilingan maxsulot xajmi asosida aniqlash maksadga muvofiqdir. Chunki, tugallanmagan ishlab chikarish va realizatsiya kilinmagan maxsulot koldiklarining kupayishi iktisodiy axamiyatga ega emas.

Shuning uchun **Shartli-sof maxsulot xajmi** aniklanadi. Buning uchun Yalpi maxsulot kiymatidan bevosita moddiy xarajatlar (xomashyo, butlovchi kismlar, elektr energiyasi, yonilgi va xokazolar) olib tashlanadi. Natijada bu kiymat tarkibida ish xaki va majburiy to'lovlar, asosiy fondlarning amortizatsiyasi va foyda mikdori koladi.

Sof maxsulot xajmi deyilganda esa Yalpi maxsulot xajmidan moddiy xarajatlardan tashkari amortizatsiya kiymatini xam olib tashlash tuShuniladi.

Ammo bozor iktisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda xam narx-navoning o'zgarishi sof maxsulot ko'rsatkichi tovar yoki Yalpi maxsulotga karaganda xam ko'prok ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun **me'yortiv sof maxsulot** ko'rsatkichi ishlab chikilgan. Bu indikatorga sof maxsulot ko'rsatkichidan farkli ravishda majburiy to'lovlar bilan birga ish xaki me'yortivi va tarmok buyicha o'rtacha foyda kiritilgan.

Lekin amaliyotda bu uslubning kator nuksonlari (maxsulot barcha turlari uchun ish xaki me'yortivlari tizimini ishlab chikish, ish xaki me'yortivlari darajasini oshirishga moyillik sababli mexnat sarfining ortishi, indikatorning korxona pirovard moliyaviy natijalari bilan bog'lik emasligi va xokazolar) ayon bo'ldi. SHu sababli uni fakat taxlil maksadlarida ishlatish o'rinli deb xisoblanadi. Agar bu talablarga rioya etilmasa, mexnat unumdorligining darajasi va o'sish sur'atlarining pasayishi mukarrardir. Jumladan, nokulay, xodim sog'ligi uchun zararli bo'lgan sanitariya-gigiyena Sharoitlari uning kasallanishi okibatida ish vaqti yukotilishi, ko'shimcha ta'tillar berish zarurati, umuman xodimning mexnat kobiliyatini yo'qotishiga sabab bo'ladi. Jamiyatning rivojlanishi va uning barcha a'zolari farovonligi darajasi mehnat unumdorligi darajasi va uning o'sishiga bog'liqdir. Bundan tashqari, mehnat unumdorligi darajasi ishlab chiqarish usulini ham, xatgo ijtimoiy - siyosiy tuzumning o'zini ham belgilab beradi.

Mehnat unumdorligi qanchalik Yuqori bo'lsa, ish sifati zarur darajada bo'lgani xolda mehnat xarajatlari qanchalik kam bo'lsa, mehnat samaradorligi Shunchalik Yuqori bo'ladi. Fermer xo'jaligi boshqaruvchisi egasi uchun vaqt birligi ichida qanday ishlab chiqarish darajasiga erishilgani emas, shu bilan birga u qanday mehnat xarajatlari bilan ta'min etilgani xam muximdir. Mehnat xarajatlari xodimlar soni va mehnatga to'langan xaq xarajatlari bilan o'lchanadi. Unisi xam, bunisi xam ish vaqti bilan o'lchanishi mumkin. Shuning uchun xam mehnat samaradorligi ni taxlil qilganda vaqt birligi ichida sarflangan mehnat xarajatlari xam, shu bilan birga uning to'zilisli xisobga olingan xolda xam qarab chiqiladi.

Mehnat unumdorligini xisoblashda quyidagilarni ta'minlash imkonini beradigan uslubiyot ideal xisoblanishi mumkin:

- korxona ishining ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liqligi;
- xodimga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish;
- mehnat unumdorligining umumiy va xususiy ko'rsatkichlari bir o'lchov bilan o'lchanishi mumkinligi;
- mehnat miqdori bilan sifati o'rtasidagi bog'liqlik.

Xar qanday maxsulot, buyum, xizmatda jonli va buyumlashgan mehnat jamlangan bo'ladi. Bunday jami mehnat tufayli moddiy boyliklar yaratiladi.

Jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanib borgan sari jonli mehnat moddiylashgan mehnatning tobora ko'proq massasini qamrab oladi. Natijada jami mehnatda moddiylashgan mehnatning ulushi ko'payib borgan sari jonli mehnatning ulushi kamayib boradi. Bu mehnat unumdorligi oshganligining asosiy belgisidir. Ishlab chiqarishning takomillashib borishi va fan-texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligi oshishining asosiy Shartlaridir. YAngi texnologik jarayonlar, materiallar va avtomatlashtirish vositalarining joriy etilishi mehnatni mexanizatsiyalash darajasining ortishiga olib keladi. Agar texnika, texnologiya darajasi kun maboynida 200 birlik mahsulot ishlab chiqarish imkonini bergan bo'lib, mehnat jadalligi va ish vaqtidan foydalanish indeksleri tegishli ravishda 0,95 va 0,9 dan iborat bo'lsa, u holda haqiqiy mehnat unumdorligi 200 emas, 171 birlikni (200. 0,95.0,9) tashkil etadi.

«Unumdorlik» tuShunchasi maxsulotning xar kandy xarajatlarning turiga yoki barcha turlariga nisbatini anik ko'rsatkichlarda ifodalash uchun qo'llaniladi. Statistik ma'noda unumdorlik deyilganda, ishlab chiqarish natijalarining foydalanish omillari sarflariga nisbati tuShuniladi. Boshkacha kilib aytganda, u xarajat birligi to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan maxsulot xajmidir. Shunga ko'ra, ishlab chiqarish natijasini uning barcha o'lchash mumkin bo'lgan omillari majmuiga nisbatan yoki aloxida" gurux omillarga nisbatan xisoblash mumkin.

Shunday omillar jumlasiga kuyidagilar kiradi: 1)sarflangan ishlab chiqarish omillarining miqdori va sifati (sarf samarasi); 2)sarflangan omillar miqdorlarining foydalanilishi darajasi (foydalanish samarasi); 3)ishlab chiqarish omillari kombinatsiyalarining miqdori (substitutsiya samarasi); 4)texnika tarakkiyoti (texnika samarasi); 5)ishlab chiqarish jarayoni tashkil kilinishi (daraja samarasi); 6)aloxida jarayonlar sektorlarning yoki xarajatlar yoxud maxsulotning umumiy miqdorida ishtirok etishi (tarkib samarasi); 7)aloxida sektorlar va jarayonlar orasidagi uzaro alokalar darajasi va tarkibi (uzaro alokodorlik samarasi).

1.2. Fermer xo'jaligida mexnat unumdorligini baholash usullari

Jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarining tabiiy-iqtisodiy resurslar va manbalari inson mehnati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi «Mehnat Qodeksi»ning 1-bob 8-moddasida mehnatning ulug'vorligi to'g'risida Shunday deyilgan: «Har bir shaxsning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlanadi, bu himoya mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshiruvchi va nazorat qiluvchi organlar, Shuningdek mehnat nizolarini ko'ruvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi». Jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarining manbalari inson mehnati hisoblanadi.

Iqtisodchilar mehnatni kishilik hayotining asosiy Sharti ekanligini va insonning o'zining ham kamolotga yetishuvi mehnat orqali amalga oshganligini aytib o'tgan. Mehnat – bu insoning maqsadli faoliyati bo'lib, bu jarayonda u tabiat

predmetlarini o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtiradi va o'zgartiradi. O'z kuchini qo'shgan holda inson, mehnat qurollaridan foydalanib, tabiat bergan materiallarni, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan moddiy ne'matlarga, boyliklarga aylantiradi. Mehnat jarayoni, insoning ish joyida, uning mehnat faoliyatining ma'lum natijalariga erishishga yo'naltirilgan harakatlarining to'plamini bildiradi. Bu ma'noda "mehnat jarayoni" tuShunchasi, "ishlab chiqarish jarayoni" tuShunchasiga nisbatan ancha tor tuShunchadir. Ishlab chiqarish jarayoni har biri ma'lum bir bosqichni va tayyor mahsulot olishni aks ettiruvchi, bir butun mehnat jarayonlari kompleksi bazasida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ko'p hollarda ishlab chiqarish jarayoni, inson mehnati ishtirokisiz ham, tabiiy omillar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Mehnat jarayoni, ma'lumki o'z ichiga uch elementni: mehnat vositasi, mehnat predmetlari va bevosita inson mehnatining o'zini oladi. Ishlab chiqarish vositalarisiz mehnat jarayoni ma'nosiz bo'ladi, o'z navbatida inson mehnatisiz ishlab chiqarish vositalari ham o'likdir va hech narsa yarata olmaydi. Kishilar mehnati ishlab chiqarish vositalarini harakat qilishga va insonning maqsadini amalga oshirishga birga harakat qilishga majbur qiladi. Mehnat vositalari va mehnat predmetlarini yarata borib va tabiatga ta'sir etib, inson, o'zini ham o'zgartiradi, uning malakasi, bilimi va ishlab chiqarish tajribasi oshadi.

Mehnat – boylik manbaidir. U inson faoliyatining birinchi va zarur Sharti hisoblanadi. Inson va jamiyat taraqqiyotining tarixi jarayonida mehnatning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi oddiy haqiqatdir. Odamlar atrofdagi tabiatni o'zgartirar ekanlar, o'zlarining o'zgarib borayotgan ehtiyojlari ta'sirida o'z tabiatlarini ham o'zgartiradilar: bilimlarini boyitib, qobiliyatlarini rivojlantiradilar va yangi ko'nikmalar hosil qiladilar.

Mehnat – insonning biron bir maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyatidir. Mehnat jarayoni quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: mehnat predmetlari; mehnat vositalari; jonli mehnat sarflari (Abdurahmonov Q.X., Mamarasulov F.U. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. -T.: TDIU, 2006)

Bozor iqtisodiyoti Sharoitida fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish

samaradorligini, tayyorlangan mahsulotning sifatini oshirish ko'p hollarda ijrochilarning mehnat natijalariga bog'liq. Shuning uchun xo'jaliklarda xodimlarning mehnat faoliyatini eng samarador qilishni ta'minlovchi, xodimlarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beruvchi tashkiliy – texnikaviy Sharoit yaratish maqsadida mehnatni o'rganish, takomillashtirish va har tomonlama asoslashgan mehnat normalarini belgilashning nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqish hamda ish vaqtidan samarali foydalanishi asosida mehnat unumdorligini o'stirish imkoniyatlarini qidirib topish, ya'ni mehnatni asoslangan tarzda tashkil etish va uni tahlil etish hozirgi kunning muhim vazifasi hisoblanadi (G.Davlatova. Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish va me'yorlashtirish. -Farg'ona, 2006).

Mehnat resurslari deb, o'zining aqliy va jismoniy mehnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etadigan mehnatga qobiliyatli kishilar to'plamiga aytiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish insonning tashabbuskor va faol bo'lishini nazarda tutadi. Uning qanday yashashi o'zining yangi iqtisodiy tizimga singib u bilan hamoxong bo'lib ketish mahoratiga bog'liq. Insonning jismoniy imkoniyatlari va ma'lumotlilik darajasi, ma'naviyati qanchalik Yuqori bo'lsa, bu narsa Shunchalik muvaffaqiyatliroq kechadi.

Mehnat unumdorligi - xodimlar mehnat faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichidir. U ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar miqdorining mehnat xarajatlariga nisbatan, ya'ni mehnat xarajatlari birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot bilan belgilanadi. Jamiyatning rivojlanishi va uning barcha a'zolari farovonligi darajasi mehnat unumdorligi darajasi va uning o'sishiga bog'liqdir. Bundan tashqari, mehnat unumdorligi darajasi ishlab chiqarish usulini ham, hatto ijtimoiy - siyosiy tuzumning o'zini ham belgilab beradi (Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. -T.: TDIU, 2005)

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichi mehnat samaradorligi va natijadorligining barcha jihatlarini aks ettirmaydi, masalan, u mehnat sifatini hisobga olmaydi, bundan tashqari, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish zarurligini

ifodalamaydi. «Mehnat unumdorligi» tuShunchasiga o'z ahamiyati jihatidan yaqin, lekin mazmunan yanada kengroq bo'lgan tuShuncha «mehnat samaradorligi» tuShunchasidir. Mehnat samaradorligi eng kam mehnat xarajatlari bilan Yuqori mehnat natijadorligiga erishish darajasini ifodalaydi. Mehnat samaradorligi mehnat unumdorligidan farqli o'laroq faqat mehnatning miqdor ko'rsatkichlarini emas, shu bilan birga sifat natijalarini ham ifodalaydi. Mehnat samaradorligi ko'rsatkichining yana bir muhim ustunligi unda mehnat resurslarini tejashning aks etishidir (R.Ismatov. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. –Namangan, 2005).

Mehnat unumdorligi qanchalik Yuqori bo'lsa, ish sifati zarur darajada bo'lgani holda mehnat xarajatlari qanchalik kam bo'lsa, mehnat samaradorligi Shunchalik Yuqori bo'ladi. Fermer uchun vaqt birligi ichida qanday ishlab chiqarish darajasiga erishilgani emas, shu bilan birga u qanday mehnat xarajatlari bilan ta'min etilgani ham muhimdir. Mehnat xarajatlari xodimlar soni va mehnatga to'langan haq xarajatlari bilan o'lchanadi. Unisi ham, bunisi ham ish vaqti bilan o'lchanishi mumkin. Shuning uchun ham mehnat samaradorligini tahlil qilganda vaqt birligi ichida sarflangan mehnat xarajatlari ham, shu bilan birga uning to'zilishi hisobga olingan holda ham qarab chiqiladi.

Mehnat unumdorligi mehnat salohiyati samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy faoliyati aynan shu ko'rsatkich miqdoriga bog'liq.

Mehnat unumdorligi bir vaqt birligida (kun, oy, chorak, yil) bir xodim tomonidan yaratilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi bilan o'lchanadi. Bu ko'rsatkich natijani xodimlarni o'rtacha soniga (vaqt birligiga) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$\text{Mehnat unumdorligi} = \frac{\text{yilgi mahsulot}}{\text{xodimlarning soni}}$$

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki mehnat unumdorligiga ikkita omil ta'sir qiladi. Ularning natija o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun bir qancha usullardan foydalanish mumkin. Bu yerda qayta hisoblash usulini qo'llagan holda aniqlash yo'llari ko'rsatilgan.

Umuman xulosa qilganda fermer xo'jaligidagi hodimlarning mehnat unumdorligi qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ya'ni paxta va g'alla yetishtirishning iqtisodiy samaradorligiga borib taqaladi.

Bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini ko'rsatkichlar tizimi orqali baholash maqsadga muvofiqdir. Chunki, bunda har bir ko'rsatkich o'ziga hos bo'lgan xususiyatlaridan kelib chiqib aniqroq bo'lgan xulosalarga kelish imkoniyatini beradi. G'allachilik iqtisodiy samaradorligi natural, kiymat va tuldiruvchi (nisbiy) xarakterdagi ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlanishi to'g'riroqdir.

Rentabellik fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorlik darajasini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblanib, o'zida sarflangan bir so'mlik harajat hisobiga olingan foydani ifodalaydi. Rentabellik o'z xususiyatiga ko'ra tarmoqning iqtisodiy samaradorligi to'g'risida yakuniy, umumiy xulosa chiqarish asosida tarmoq salohiyatini baholash imkonini beradi. Bu esa rentabellik darajasini foyda bilan bir qatorda mahsulot tannarxiga ham bog'liq ekanligini asoslaydi. Mahsulot tannarxi esa uni ishlab chiqarish uchun ketgan pul material xarajatlari va ish haqidan iboratdir. Harajatni kamaytirish hisobiga rentabellikni ko'tarish maqsadida tannarx tarkibidagi ish xaqini kamaytirish hollari bozor iqtisodiyotiga o'tish Sharoitida moddiy manfaatdorlik tizimini bo'zilishiga olib keladi. Shu jihatdan tannarx tarkibidagi bu ikki nisbat optimalligini ta'minlash bozor iqtisodiyotining asosiy talabidir.

Yuqorida ko'rib o'tilgan ko'rsatkichlarga moddiy manfaatdorlik nuqtai nazaridan baho bersak, ularning har biri o'zida iqtisodiy samaradorlikni ba'zi bir jihatlarini aks ettirishi bilan bir qatorda mavsum yakunidagi moddiy manfaatdorlikni nazarda tutadi. Ammo, g'alla yetishtiruvchilarni mavsum davomidagi extiyojlarini qondirish ham muhim zaruriyat hisoblanadi. Bu zaruriyatni esa natural va qiymat ko'rinishidagi daromadlar hal etadi. G'allachilikda g'alla yetishtiruvchilarni ish haqi bilan ta'minlash darajasini o'zida to'laroq aks ettiruvchi ko'rsatkich bu bir ishlovchi hisobiga pul daromadlarining miqdori hisoblanadi. Bu ko'rsatkich olingan sof foydani hodimlar soniga nisbatini mavsum oylari bo'yicha qayta hisobi bilan asoslanadi. Bu ko'rsatkichni hisobga olish birinchidan, mehnat resurslarinnig kundalik ehtiyojlarini qondirish holatini

aniqlash va shu asosda uni yaxshilash chora tadbirlarini belgilash imkonini bersa, ikkinchidan, ishchilarni mulkka va mehnatga bo'lgan munosabatining yaxshilanishiga, uchinchidan esa g'alla yetishtiruvchilarni ijtimoiy ahvoli va turmush darajasini yaxshilash uchun zamin yaratiladi.

Har bir fermer xo'jaligi rahbari eng avvalo har bir harajat turining hosildorlikka qay darajada ta'sir etishini yaxshi anglashi va Shunga muvofiq harajatlarni sarfini amalga oshirib borishi lozim. Fermer xo'jaliklarida paxta va bug'doy yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Yalpi mahsulot yetishtirilgan Yalpi hosilni 1 ts bug'doyning harid bahosiga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Bug'doy harid bahosi, topshiriladigan donning sinfiga va naviga bog'liq holda tabaqalashgan bo'ladi. Donning harid bahosi turli yillardagi jahon bozoridagi narxi, inflyatsiya darajasi, joriy yildagi tabiiy-iqlim Sharoitiga mos holda sarflangan o'rtacha harajatlarni hisobga olgan holda davlat tayyorlov tashkilotlari tomonidan shakllantiriladi. Fermer xo'jaligining yalpi mahsuloti ming so'm hisobida ifodalanadi.

Ishlab chiqarish harajatlari avvalo asosiy va ustama harajatlarga, mahsulot tannarxiga kiritilishiga qarab to'g'ri va egri harajatlarga, harajatlarni tarkibiga qarab oddiy va kompleks harajatlarga, ishlab chiqarish hajmiga qarab doimiy va shartli o'zgaruvchi harajatlarga bo'lish mumkin. Ushbu barcha harajatlarni jamlagan holda qiymat ko'rinishida hisobga olinib, ming so'm o'lchov birligida ifodalanadi (B.Salimov. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti, T.:2004).

Qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish, ish va xizmatlarni bajarish uchun qilinayotgan barcha xarajatlarni iqtisodiy mazmunga, maqsadga, hisobot ob'ektiga hamda shakllanish manbalariga ko'ra tasnifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli «Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom» da ko'rsatilgan. Unga ko'ra ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi quyidagicha turkumlanadi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi harajatlarning elementlari:
 - a) ishlab chiqarishning moddiy harajatlari, ya'ni urug'lik va ko'chat harajatlari,

mineral o'g'itlar uchun harajatlar, yoqilg'i-moylash materiallari, ish va texnik servis xizmatlari uchun harajatlar, o'z texnikalarini ta'mirlash uchun sarflangan resurslar uchun harajatlar va boshqa moddiy harajatlarni o'z ichiga oladi.

b) mehnatga haq to'lash harajatlari

v) ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar,

g) asosiy fondlar amortizatsiyasiga o'tkazma

d) ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa moddiy harajatlar

2. Tannarxga kiritilmaydigan, biroq foydani aniqlashda hisobga olinadigan davr harajatlari, ya'ni boshqaruv harajatlari, mahsulotni sotish harajatlari, boshqa operatsion harajatlar.

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha harajatlar. Bunga foizlar bo'yicha to'lovlar, mol-mulkni uzoq muddatli lizingga olish to'lovlari, qimmatli qog'ozlar chiqarish bilan bog'liq harajatlar kiradi.

4. Favqulodda zararlar – suv toshqini, yong'in, do'l jala kabi tabiiy ofatlar va mamlakat qonunchiligi o'zgarishi natijasida ko'rilgan zararlar

Fermer xo'jaligida g'alla yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi yakuniy ko'rsatkich rentabellik bo'lib, fermer xo'jaligining g'allachilikdagi foydasini jami ishlab chiqarish harajatlari nisbatini foiz hisobida olinganidir. Rentabellik darajasi bir birlik ishlab chiqarish harajatlari evaziga qancha foyda olinganini bildiradi. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida takror ishlab chiqarishni ta'minlay oladigan optimal rentabellik darajasi 45-50%ni tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, fermer xo'jaligining o'rtacha 1 gektar ekin maydoniga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish harajatlari, Yalpi mahsulot va daromad ham samaradorlikni aniqlashga asos bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytilganda, fermer xo'jaligidagi o'rtacha 1 hodim hisobiga to'g'ri kelgan Yalpi mahsulot va ish haqi xo'jalikni mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini tahlil qilishda asos bo'ib hisoblanadi. Bundan tashqari, mehnat harajatlari evaziga yaratilgan Yalpi mahsulot mehnat unumdorligi va mehnat samaradorligi ko'rsatkichlarini yanada yaqqol namoyon etadi.

Mexnat unumdorligining darajasi va o'sish sur'atlariga ko'pgina omillar ta'sir

ko'rsatadi Ularning bir guruxi ***ichki omillardir***. Bu omillarga korxonalarning texnika kurollanganligi, qo'llanilayotgan texnologiyalarning samaradorligi, mexnat va ishlab chikarishning tashkil etilishi, rag'batlantirish, xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish tizimining ta'sirchaligi va xokazolar kiradi. Mexnat unumdorligining darajasi va o'sish sur'atlariga ko'pgina omillar ta'sir ko'rsatadi (8.2-rasm).

Ularning bir guruxi ichki omillardir. Bu omillarga korxonalarning texnika qurollanganligi, qo'llanilayotgan texnologiyalarning samaradorligi, mexnat va ishlab chiqarishning tashkil etilishi, rag'batlantirish, xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish tizimining ta'sirchaligi va xokazolar kiradi.

2-bob:Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida mexnat unumdorligini iqtisodiy ko'rsatkichlarini xozirgi xolatini taxlili

2.1.Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligining tabiiy-iqtisodiy Sharoitlarini xozirgi xolati

Mamlakatimizdagi mavjud korxona va tashkilotlarini xamda shu jumladan fermer xo'jaligini modernizatsiyalashtirish jarayonida qishloq xo'jaligida asosiy xo'jalik yuritish shakli xisoblangan fermer xo'jaliklarining maxsulot ishlab chiqarish jarayonidagi iqtisodiy samaradorligi ko'p jixatdan xo'jalikning ma'muriy-xududiy joylashuvi, tuprog'ining tarkibi, suv bilan ta'minlangnlik darajasi va tabiiy iklim Sharoitlariga bevosita bog'likdir. Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligi Izboskan tuman xokimligi xuziridagi tadbirkorlik subektlari ni davlat ro'yxatidan o'tkazish inspektsiyasidan 2013yil 5fevral Izboskan tumani xokimining №130-Q sonli qarori bilan tashkil etilgan bo'lib, mazkur fermer xo'jaligi Erkin k.f.y.ga qarashli Izboskan xirmoni baraka Urganji massivi joylashgan. fermer xo'jaligi asosan dastlabki davrdan boshlab paxta va bug'doy ekish bilan shug'ullanib kelmoqda.

Fermer xo'jaligini 22 yilllik ish stajigaa ega bo'lgan oliy ma'lumotli "Mamadaliyeva Mamura Jakbarovna "Izboskan xirmoni baraka " fermer xo'jaligini boshqarib kelmoqda.

Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligi 73 gektar Shundan sug'oriladigan ekin yerlari 72 gektar, ariq va zovurlar 0.4 gektar, yo'llar 0.3 gektar,0.3 gektar tut va ijtimoiy binoalardan tashkil etib yerni uzoq muddatli (50 yilga) ijaraga olgan holda paxta va g'alla yetishtirish bo'yicha faoliyat ko'rsatmoqda.Xozirgi kundanda ekin maydoni o'zgarmagan. Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligi Andijon viloyati markazidan 16 km, tuman markazidan 6 km va Andijon-Madaniyat avtomagistral yo'liga qadar bo'lgan masofa 1 km tashkil etadi.Shuningdek fermer ho'jaligi tuman don maxsulotlarini qabul qiish korxonasidan 6km, paxta tozalash zavodidan 6 km, pilla tayyorlash korxonasidan

6km, Uzkimyo tashkilotidan 7 km, va MTPdan 7km, temir yo'l stantsiyasi 6 km uzoqlikda joylashgan.

Fermer xo'jaligi shimoliy tomondan Boyto'ra xosili fermer xo'jaligi bilan, g'arb tomondan «Arzibek Yo'ldoshev » fermer xo'jaligi bilan, Sharq tomonidan "Urganji zamin umidi " axoli va janub tomonidan "Xoshimjon baraka" maxaliy axoli bilan Chegaradosh. Fermer xo'jaligini iqtisodiy samaradorligini oshirishda bank tizimini roli juda katta. Shundan kelib chiqib doimiy ravishda bank bilan iqtisodiy aloqalari yaxshi yo'lga qo'ingan. Fermer xo'jalagi Izboskan tumanidagi Miliy bank Izboskan filiali o'zini xisob raqamlariga egadir.

Bankdagi hisob raqami –Milliy bank Izboskan tuman bo'limi MFO 00067.
Hisob raqami 20208000200301075001. Soliqdagi hisob raqami 303053027 Fermer ho'aligi qishloq ho'jallik maxsulotlaridan paxta va bug'doy, yetishtirishga ixtisoslagan. SHu bilan birga fermer xo'jaligi va a'zolari uchun sabzavot ekinlarini ekish yo'lga qo'ingan. SHu jumladan paxta 40ga, bug'doy 30ga, sabzavot 2.0 ga. Ekiladigan paxta navi «An-35,Namangan-77», Bug'doy esa «Asr,CHilaki» navi ekilib davlat buyirtmasini bajarib kelmoqdi. SHu bilan birgalikda davlat buyyurtmasidan ortiq qismini ishchi xizmatchilarni extiyojlarini qondirish maqsadida ish xaqini bir qismiga taqsimlab beriladi. Urug'lik bug'doyni tumandagi markazi omborxonalariga topshirilib, u yerdan kelgusi yil uchun saralangan urug'larni fermer ho'jaliklariga taqsimlanadi. Undan tashqari fermer xo'jaligi bug'doy xosili yig'ishtirib olingandan keyin uni o'ringa takrory ekin sifatida piyoz, kartoshka, sabzi, turup, sholg'om va shu kabi boshqa sabzavot ekinlari ham ekiladi.

Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligining boshlig'i Mamadaliyeva Mamura Jakbarovna 1967 yil Izboskan tumanida tug'ilgan, 4 ta farzandi bor. Kasbi ximiya biologiya fani o'qituvchisi. Ish staji 22yil, ma'lumoti oliy. Oldin sobiq Andijon davlat pedagogika institutini 1992yilda tamomlab o'qituvchilik, keyinchalik kollej direktori lavozimlarida ishlab kelgan. Xozirgi kunda fermer xo'jaligini raisi bo'lib ishlab kelmoqda.

Fermer xo'jaligi hududidagi iqlim va tabiiy Sharoit paxta va g'alla kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun juda qulaydir.

Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligining hududida yil davomida 3220 soat quyoshli kunlar bo'lishiga to'g'ri keladi. Yilning issiq kunlari 6 oyni tashkil etadi. Eng issiq kunlar o'rtacha kecha-kunduz bo'yicha 36-40°S bo'lsa, ayrim kunlar 40-42°S bo'ladi. 2013 yilda samarali harorat paxta yetishtirish uchun me'yoriy holatda bo'ldi. Xo'jalikda vegetatsiya davrining davomiyligi 165 kunni tashkil etadi.

Fermer ho'jaligining yer uchaskasi tekislikda joylashgan bo'lib nisbatan olganda tabiiy iqlim Sharoitiga qulay xisoblanadi. Tuproqni turi bo'z tuprokdir. Fermer xo'jaligi joylashgan xududinig iqlim Sharoitida keskin kontinental bo'lib, yoz mavsumi issiq, qish fasli esa sovuq xisoblanadi. YOzda xavo xarorati 38-42 darajaga qatar ko'tariladi. Kish oylarida esa xavoning 10-12 darajagacha, ayrim yillarda 14-16 darajaga yetadi. Yilning o'rtacha xavoning xarorati 17-19 darajaga teng bo'lib, o'rta tolali paxta g'alla ekinlaridan Yuqori xosil olish imkoniyatini beradi. Fermer ho'jaligi iqlim Sharoitiga mos xolda sug'orilib dexqonchilik qilinadi. Fermer xo'jaligini suv bilan ta'minlanishi talab darajasida bo'lib, norin daryo tizimiga qarashli kanalidan foydalanib faoliyat ko'rsatadi. Fermer ho'jaligi o'ziga uzoq muddat davlat tomonidan ijaraga berilgan bo'lib, yer uchaskalaridan foydalangan xolda qishloq ho'jaligi tavar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi fermer ho'jaligining a'zolari bilan birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridlik xuqo'qlariga ega bo'lgan ho'jalik yurituvchi sub'ektdir. Er uchaskasining melarativ xolati yaxshi bo'lib, er osti suvlari 2-3 metr joylashgan. Tuprog'i bo'z tuproq xisoblanib, nisbatan olganda unumdor xisoblanadi. Xo'jalik yerining tuprog'i unumdor bo'lib undan g'omus miqdori ham talab darajasida.

Fermer xo'jaligini suv bilan ta'minlanishi talab darajasida bo'lib, u Izboskan SIUGa a'zo. Fermer ho'jaligini sug'orma suvlari "Zilola" FIDR, Moygir ariq suvidan foydalanadi. Fermer ho'jaligi 50 yilga uzoq muddat davlat tomonidan ijaraga berilgan bo'lib, yer uchaskalaridan foydalangan xolda qishloq ho'jaligi tavar ishlab

chiqarish bilan shug'ullanuvchi fermer ho'jaligining a'zolari bilan birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridlik xuquqlariga ega bo'lgan ho'jalik yurituvchi sub'ektdir. yer uchaskasining melarativ xolati, 34 gektar yer maydonlari toshlak, 38 gektar maydonlari zaxkash bo'lib, er osti suvlari 2-3 metr joylashgan. Tuprog'i och tusli bo'z tuproq xisoblanib, nisbatan olganda unumdor xisoblanadi. Xo'jalik yerining tuprog'i unumdor bo'lib undan g'omus miqdori ham talab darajasida. (1-jadval) da «Izboskan xirmoni baraka» fermer ho'jaligiga ijaraga berilgan yer uchaskasining tuproq banitet ballari va tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan bo'lib, xo'jalikning ekin maydonlari holati, o'rtacha banitet ballari, sug'orish xartalar soni xamda kadastr guruxi haqida ma'lumotlar aks etirilgan.

«Izboskan xirmoni baraka » fermer ho'jaligiga qarashli ekin maydonlarida qora tusli o'tloq tuproq bo'lib, o'rtacha 53 bonitet bali bilan baholangan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xo'jalikning ekin maydonlaridagi yer uchastkalari 3-kadastr guruhidagi 6-kadastr sinfiga tegishli. Fermer xo'jaligining 2015 yil holatidagi ekin maydonlari 72 gektar bo'lib, 5ta sug'orish xartalariga bo'lingan. Konturlarning maydoni 12,18,15,17,10 gektarni tashkil qiladi. Fermer xo'jaligi ekin maydonlari farg'ona kanalini irmoqlaridan sugoriladi. Suv bilan ta'minlanish darajasi 2015 yilda me'yor darajasida. Mazkur holat ekinlarni o'z vaqtida sug'orishni ta'minlashi bilan birga Yuqori hosil evaziga iqtisodiy samaradorlikning oshishiga xizmat qilmoqda.

«Izboskan xirmoni baraka» fermer ho'jaligi relefi tekis maydonlarga joylashgan. Tuproq yuzasidan sizot suvlarining chuqurligi darajasi 2.0 metrni tashkil etadi. Xo'jalikdagi ekin maydonlari ayrim joylari qora tuproq bo'lib, bu borada yerning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha maxsus Chora-tadbirlar amalga oshirishni talab etadi. Yuqoridagi ma'lumotlar fermer ho'jaligining barcha sug'orish xartalarini paxta, g'alla va sabzavotlar yetishtirish bo'yicha me'yorlardan 38 marta Yuqori ekanligini asoslaydi. Sug'orish xartalarining xajmi texnika vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Sababi uni sug'orish xartalarining xajmi

talab darajasida keskin Yuqori bo'lib, ishlab chiqarish resurslaridan jumladan texnikadan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud.

1-jadval

Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligiga ijaraga berilgan yer uchastkasini tuproq bonitet ballari to'g'risida ma'lumot

№	Yer uchastkalari		Bonitet	Ekin maydoni. ga	O'rtacha bonitet bali	Sug'orish xartalari soni
	Kadastr guruhlari	Sinflari				
1	1- kadastr guruhi	1- sinf 2- sinf	0 dan 10 gacha 11dan 20 gacha			
2	2- kadastr guruhi	3- sinf 4-sinf	21 dan 30 gacha 31dan 40 gacha			
3	3- kadastr guruhi	5- sinf 6- sinf	41 dan 50 gacha 51 dan 60 gacha	72	53	5
4	4- kadastr guruhi	7- sinf 8- sinf	61 dan 70 gacha 71 dan 80 gacha			
5	5-kadastr guruhi	9- sinf 10- sinf	81 dan 90 gacha 91 dan100gacha			

Manba: jadval Izboskan tumanidagi Xirmoni baraka fermer xo'jaligining 3 yillik statistik ma'lumotlaridan olingan

Izboskan tumanida qishloq xo'jaligi ekinlari olishi mumkin bo'lgan yillik harorat hamda yog'inlar miqdori yetarli bo'lib, ekin maydonlari paxta va g'alla yetishtirish talablariga to'la javob beradi.

Xo'jalik yerlari paxta va bug'doy xamda sabzavot maxsulotlarini yetishtirish uchun ancha qulay yerlar hisoblanadi. Xo'jalikning tuprog'i qora tusli o'tloq tuproq, tuproqdagi fosfor miqdori 32-43 mg/kg, kaliy 100-188 mg/kg ni tashkil etadi va bu o'rtacha me'yor hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, har bir gektar hisobiga organik o'g'it solish me'yori 15-20 tonnani azot 160-200 kg ni fosfor

170-190 kg ni kaliy 70-95 kg ni tashkil etadi. Xo'jalikdagi ekin maydonlari paxta va g'alla kabi strategik ekinlardan Yuqori hosil olishga qulay imkoniyat beradi.

«Izboskan xirmoni baraka» fermer ho'jaligi dehqonchilikka ixtisoslashtirilgan bo'lib, xo'jalik yerlariga asosan paxta, don va takroriy ekinlar ekiladi. Fermer xo'jaligi tasarrufidagi ekin maydonlarining faoliyat davomidagi 3 yil mobaynidagi tarkibi, ekinlar strukturasi va xodimlar soni haqidagi ma'lumotlar 2-jadvalda batafsil keltirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rib turibdiki, Izboskan xirmoni baraka nomli fermer xo'jaligining ekin maydoni tahlil etilayotgan 2013-2015 yillarda ekin maydoni optimallashtirish jarayonlarida nisbatan o'zgarmagan.

Xo'jalikdagi paxta maydonlari 40 gektardan 2015yilga kelib 40 gektar xolatida saqlanib qolgan. Jami ekin maydoniga nisbatan paxta maydonlarining ulushi 55.5% , g'alla maydonlarining ulushi 44.5% tashkil etadi. SHu bilan bir vaqtda paxta hosildorligi 31.9 tsentrdan 32.9 tsentenerga ko'taligan, bug'doy hosildorligi 2013yilda 65 tsentener bo'lgan bo'lsa 2015yilga kelib xosildorlikni bir xil xolatda ushlab turishga erishgan.

Fermer xo'jaligini jadal rivojlantirish maqsadida kuz va erta bahorda alohida-alohida agregatlar bilan bajariladigan yerlarni o'g'itlash, shudgorlash, tekislash, chizellash, boronalash, molalash va pushta olish kabi agroteknik tadbirlarni bajarishda an'anaviy usulda bajarilganda tuproqqa daladan ko'p martalab ishlov berish oqibatida ortiqcha mehnat, energiya va yoqilg'i sarfini oshiradi, tuproq ortiqcha zichlanib strukturasi bo'zilishiga olib keladi. So'ngi yillarda O'zMEI olimlari tomonidan daladan bir o'tishda tuproqni ekishga tayyorlash bo'yicha bir nechta texnologik jarayonlarni qo'shib bajaradigan, tuproqqa minimal ishlov berilishini ta'minlaydigan kombinatsiyalashgan agregat ishlab chiqildi. Bu kombinatsiyalashgan agregatlar qo'llanilganda agregatlarning daladan o'tish soni 6-7 martaga kamayishi evaziga tuproq ortiqcha zichlanmaydi, Chigit yumshatilgan, o'g'itlangan va pushta olingan joylarga ekiladi. Ekinlar qiyg'os unib chiqadi, sug'orish egatlarini yumshatilmagan joylardan olinishi suvni ortiqcha isrof bo'lmasligini ta'minlaydi. Yangi texnologiya bo'yicha bu yil pushta olingan joyga kelgusi yili egat ochiladi. Undan keyingi yili esa buni aksi bo'ladi. Egat va pushta

o'rinlarining almashib turishi tuproq fizik–mexanik xossalarini yaxshilaydi. Hozirgi paytda “BMKB –Agromash OAJ”da kombinatsiyalashgan agregatning sanoat nusxalari yasaliib, xo'jalik sinovlaridan o'tgan. Ekin maydonlarining keskin o'zgarishi hisobiga ko'p mehnat talab qiladigan amallarni: g'o'zani yagonalash, begona o'tdan tozalash, chopiq qilish kabi agrotexnika tadbirlarini bajarish uchun qo'shimcha mehnat resurslari jalb qilingan.

2-jadval

Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligini ekin maydoni va uning tarkibi.

№	Ko'rsatkichlar	O'l- chov bir- ligi	Yillar						2015- yilda 2013- yilga nisbatan %
			2013		2014		2015		
			Miqd ori	%	Miq- dori	%	Miqd ori	%	
1	Jami ekin maydoni	ga	72	100	72	100	72	100	100
1.1	Shundan: paxta	ga	40	55.5	40	55.5	40	55.5	100
	Hosildorlik	ts\ga	31.9	X	32.9	X	32.4	X	101.6
	Yalpi hosil	ts	1276	X	1316	x	1296	X	101.5
1.2	Bug'doy	ga	30	44.5	30	44.5	30	44.5	100
	Hosildorlik	ts\ga	62.0	X	65.0	X	68.0	X	100
	Yalpi hosil	ts	1860	X	1950	X	2040	X	109.6
3	Hodimlar soni	nafar	26	100	26	100	24	100	100
2.1	Shundan: Paxtachilikda	nafar	19	73	19	73	17	70.9	89.5
2.2	Donchilikda	nafar	7	27	7	27	7	29.1	100
3	Erni bonitet Bali	ball	53	X	53	X	53	X	100

Manba: Izboskan tumanidagi yer kadastri ma'lumotlari asosida tuzildi.

2013 yildagi 26 nafar hodim 2015 yilga kelib 24 nafarni tashkil etgan ishchilar sonida 20foizga o'zgarish bo'lgan. Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida 2015 yil holatiga 24 nafar hodimlardan 17 nafari yoki 71 foiz qismi

paxtachilikda, qolgan 7 nafari yoki 29 foiz qismi esa g'allachilikda agrotexnika tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish bilan shug'ullanmoqda.

Asosan oilaviy mehnatga asoslangan fermer xo'jaligida o'z oila a'zolari va qarindoshlari g'o'zaga ishlov berish amallarining barchasiga o'z vaqtida ulgurmaydilar. Shuning uchun qishloq xo'jaligida, dehqonchilikda yetarli tajriba to'plagan qishloqdagi yollanma mehnat resurslaridan jalb qilish zarurati paydo bo'ladi. Fermer xo'jaligining istiqboldagi rivojlanish dasturini tayyorlashda avvalo uni ekin maydonini optimal darajaga yetkazish uni ixtisoslashuvga va ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlanishiga va joylashgan o'rniga mos holda aniqlanadi. Fermer xo'jaligini oliy malumotli Mamadaliyeva Mamura Jakbarovna ximiya biologiya o'qituvchisi ta'sis etgan va hozirgacha boshqarib kelmoqda. Xo'jalik rahbari fermer xo'jaligini tashkiliy-iqtisodiy asoslarini yaxshi tushunadi va bu soxada yetarli tajribaga ega.

Fermer xo'jaligining a'zolari haqidagi batafsil ma'lumotlar 3-jadvalda keltirilgan.

3jadval da Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligini a'zolari va ularning tarkibi to'g'risida ma'lumotlar aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaligining a'zolari o'z faoliyat turi bo'yicha tegishli ma'lumotga ega bo'lmasada, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish bo'yicha ma'lum tajribaga ega. SHu o'rinda ta'kidlash kerakki, fermer xo'jaligining 10 nafar a'zosi bo'lib, qolganlari 1 yillik Shartnoma asosida mehnat qiladilar. Fermer xo'jaligining barcha ishchilari yakdil ravishda o'z mehnati natijasidan manfaatdor bo'lishini anglagan holda paxta va g'alla ekinlarini yetishtirishda Yuqori hosil olishga intilmoqdalar.

Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligini fermer xo'jaligining boshlig'i uzoq yillar davomida qishloq xo'jaligi kollejigi direktori bo'lib ishlab kelgan, etarlicha tajriba to'plagan. Fermer xo'jaligining ko'p a'zolari xo'jalik boshlig'ining yaqin qarindosh-urug'lari hisoblanadi. Shuning uchun ham xo'jalikda ishlab chiqarish, moliyaviy boshqarish va moddiy rag'batlantirish masalalarida qarorlar qabul qilinganda hech qanday kelishmovchiliklar va tortishuvlarga o'rin qolmaydi.

Izboskan xirmoni baraka fermer ho'jaligini fermer xo'jaligining boshlig'i uzoq yillar davomida qishloq xo'jaligida dehqonchilikdan ya'ni mexaynik,brigadir bo'lib ishlab kelgan, yetarlicha tajriba to'plagan.

3-jadval

Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligini a'zolari va ularning tarkibi to'g'risida ma'lumot

№	A'zolarining ismi va Sharifi	Tug'ilgan yili	Ma'lumoti	Kasbi	Ish staji	SHu jumladan qishloq xo'jaligida	Fermer xo'jaligi rahbariga qarindosh-urug'chilik aloqasi	Qo'shimcha egallagan kasbi
A'zolari:								
1	Mamadaliyeva Mamura Jakbarovna	1967	oliy	fx rah	23	3	o'zi	Mexanik
2	Sirojiddinov Shoxbosbek	1972	o'rta maxsus	xisobchi	12	3	-	Xisobchi
3	Abdullaxo'jaev Isroiljon	1980	o'rta maxsus	ish yurituvchi	6	3	-	Shafyor
4	Yuldasheva Ra'noxon	1981	o'r. max	povar	10	4	jiyani	chevar
5	Yuldashev Iqboljon	1981	o'rta	ishchi	7	4	jiyani	Usta
6	Otaboyev Odiljon	1975	o'rta maxs	ishchi	7	4	kuyov	Tadbirkor
7	Yuldashev Madaminjon	1958	o'rta	traktorch	30	6	amakisi	Traktorch
8	Asqarov Ma'mirjon	1985	o'rta	Ishchi	12	6	-	Shafyor
9	Xoldarov Nazirjon	1973	o'rta	suvchi	15	5	-	Traktorch
-	Otako'ziyev Xamidillo	1973	o'rta	suvchi	13	5	-	
--	Qambarov Ne'matjon	1986	o'rta maxsus	suvchi	12	5	-	-
20	Raxmonov No'monjon	1972	o'rta	suvchi	15	5		

Manba: jadval Izboskan tumanidagi Xirmoni baraka fermer xo'jaligining 3 yillik statistik ma'lumotlaridan olingan

Fermer xo'jaligining ko'p a'zolari xo'jalik boshlig'ining yaqin qarindosh-urug'lari hisoblanadi. Shuning uchun ham xo'jalikda ishlab chiqarish, moliyaviy boshqarish va moddiy rag'batlantirish masalalarida qarorlar qabul qilinganda hech qanday kelishmovchiliklar va tortishuvlarga o'rin qolmaydi. Sababi fermer xo'jaligshi oilaviy asosda tashkil etilgani uchun qarindosh-urug'chilik aloqalari barcha kelishmovchiliklarni bartaraf etib turadi. Bu fermer xo'jaligining eng muhim afzalliklaridan biridir.

Fermer xo'jaligidagi agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishda suvchi, mexanizator va agronom kabi malakali xodimlarga ehtiyoji bor. Sababi ko'plab hodimlar maxsus tayyorgarlikka ega emas. Natijada xo'jalik Chetdan Shartnoma asosida malakali xodimlarni jalb etgan. «Izboskan xirmoni baraka» fermer ho'jaligi mehnat jamosining tarkibi taxlil qilmoqchi bo'lsak; Jamoaning 1 nafari oliy ma'lumotli 23 tasi o'rta, va o'rta maxsus ma'lumotga egadirlar. Keltirilgan ma'lumotlar fermer ho'jaligida boshqarishni samarali tashkil etish uchun jamoadagi maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis kadrlarlarining salmoqli talab darajasida keskin past ekanligini asoslaydi.

Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish bir qator o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

Izboskan xirmoni baraka fermer ho'jaligini a'zolarini qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish jarayoni bo'yicha kasbiy tayyorgarligini oshirish zarur. Hozirgi kunda fermer xo'jalikni a'zolaridan 1 tasi oliy ma'lumotga ega va qolganlari hamda Shartnoma asosida ishlaydiganlarni qishloq xo'jaligida ish tajribasi kam. Shuning uchun fermer xo'jaligi a'zolarini kasbiy bilimlarini oshirib borish zarur.

Davlat ehtiyojlari uchun kontraktatsiya Shartnomasi asosida paxta va g'alla yetishtirishni tashkil etish uchun albatta asosiy vositalarning mavjud bo'lishi talab etiladi. Qishloq xo'jaligi texnikalari ekinlarga ishlov berish, yerni ekishga tayyorlash, tekislash, ekish, bug'doyni o'rib-yig'ib olish, tashish kabi ishlarda juda zarurdir. Mazkur fermer xo'jaligida 1 dona 4 g'ildirakli transport traktori va 1 dona

1 g'ildirakli chopiq traktori T-28, TTZ-80 mavjud. Bu texnikalarning ikkitasi avvalgi davrdan boshlab foydalanilayotgan bo'lsa, TTZ-80 chopiq traktori va kultivator ishchi organi birgalikda sotib olingan. Qishloq xo'jaligi texnikalarining holati soz bo'lib, o'z vaqtida joriy ta'mirlab borilmoqda. Bu holat texnik xizmatlar uchun harajatlarni kamaytirib, iqtisodiy samaradorlikning tobora oshishini ta'minlab kelmoqda. Qishloq xo'jaligi ishlari bajarish uchun boshqa zarur texnikalar tuman markaziy MTP DAJ dan olinadi. Mazkur fermer xo'jaligining yaqin istiqbolida traktorga ishchi agregat organlar: plug, chizel, o'g'it sepgich, o'qariq oluvchi hamda pritsep va kombayn kabilarni olishga erishish zarur.

Fermer xo'jaligida maxsulot ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonida amaldagi huquqiy-me'yoriy xujjatlardan samarali foydalanilgani tufayli oxirgi yillarda barcha soxalar qatori qishloq xo'jalik soxasida ham aytarli ijobiy natijalarga erishib kelinmoqda. Buni biz Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligining oxirgi 3 yil mobaynidagi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Fermer xo'jaligida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi haqidagi batafsil ma'lumotlar 4- jadvalda keltirilgan.

Jadval hamda chizma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaligida ekin maydonlari oshmagan holda jami ishlab chiqarish harajatlari 2013 yildagi 131307.2 ming so'mdan 2015 yilda 199941.5 ming so'mga yetgan yoki 152.2 foizga o'zgargan. Bunga sabab sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tish Sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan moddiy-texnika resurslarining narxlari ortishi hamda ekin maydonining kengayishi hisoblanadi. Harajatlarning batafsil tarkibi ishning keyingi qismlarida ko'rib chiqiladi.

Paxta va g'alla yetishtirish hisobiga yaratilgan Yalpi mahsulot hajmi 2013 yildagi 160796.8 ming so'mdan 2015 yilda 252916.8 ming so'mga yetgan yoki 157.3 foizga ortgan. Bu ko'rsatkich o'sishining omillari esa hosildorlik va Yalpi hosilning oshishi hamda paxta-g'allaning davlat harid baholarini 3 yil mobaynidagi ortishi hisoblanadi.

4-jadval
Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligini iqtisodiy samaradorligi.

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2013	2014 y.	2015 y.	2015 yilda 2013 yilga nisbatan %
1	Ekin maydoni a)paxta b)bug'doy	ga ga ga	72 40 32	72 40 32	72 40 32	100 100 100
2	Ishlab chiqarish harajatlari. Shundan: ish haqi	m.s m.s	131307.2 31864	171577.2 39473.2	199941 49582	152 156
3	Hodimlar soni	nafar	26	26	24	93.3
4	Yalpi mahsulot	m.s	160796.8	221846	252916	157
5	Foyda	m.s	30054.1	50942.8	52975	176
6	1 gektar hisobiga: a) Yalpi mahsulot	m.s	2333.2	3081	3512.7	151
7	1 hodim hisobiga: a) Yalpi mahsulot b) ish haqi	m.s m.s	6184 1225.5	85325 1518.2	10538 2066	170 168.7
8	Rentabellik	%	23	29.6	23.9	+0.9

Manba: Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligi ma'lumotlari asosida tuzildi

Shuningdek fermer xo'jaligida oxirgi uch yil mobaynida bir xodim hisobiga Yalpi mahsulot miqdori 1,5 martaga o'sgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda xulosa qilish mumkinki, fermer xo'jaligida oxirgi uch yil mobaynida qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlari ancha yaxshilangan. Buni biz iqtisodiy samaradorlikni yakunlovchi ko'rsatkichi xisoblangan rentabellik darajasini 23 va 23.9 foizli ko'rsatkichidan yaqqol ko'rishimiz mumkin. YA'ni tahlil davrida rentabellik +0.9 darajaga o'zgargan. Yuqoridagi keltirilgan natijalar fermer xo'jaligida agrar soxada o'tkazilayotgan iqtisodiy isloxlarni izchillik bilan amalga oshirib borilayotganligidan dalolat beradi.

2.2.Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligining iqtisodiy ko'rsatkichlari taxlili

Mehnat unumdorligi - rivojlanib boruvchi ko'rsatkichdir. U ko'pgina sabablar va omillar ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadi. Ulardan bir xillari mehnat unumdorligi oshishiga yordam bersa, boshqalari uni pasaytirishga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, mehnat unumdorligi darajasi va o'sishiga mehnat jarayoni kechadigan Sharoit ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shart-Sharoitlar qulay bo'lsa, u yoki bu omilning ta'sir etishini kuchaytiradi yoki noqulay bo'lsa, bu ta'sirni zaiflashtiradi. Masalan, tabiiy-iqlim Sharoitlari va fond bilan qurollanganlik darajasi fermer xo'jaligidagi mehnat natijalariga va uning unumdorligiga jiddiy ravishda ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish vositalarining mulkchilik shakllari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy Shart-Sharoitlar, Shuningdek, ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan Shart-Sharoitlar boshqa teng Sharoitda ham mehnat unumdorligiga jiddiy ravishda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Fermer xo'jaligida mehnat unumdorligining darajasini baholashda albatta paxta va g'alla yetishtirishdagi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashdan boshlash kerak deb o'ylaymiz.

SHu nuqtai nazardan Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida maxsulot ishlab chiqarish xolatini va moddiy texnika resurslaridan samarali foydalanish asosida iqtisodiy samaradorlikka erishishga va mehnat unumdorligining oshishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida fermer xo'jaligini oxirgi uch yillik faoliyatini iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida atroflicha o'rganib chiqdik. Fermer xo'jaligi tabiiy iqlim, yer Sharoitlari va suv bilan ta'minlanganlik darajasidan kelib chiqib asosan paxta va don yetishtirishga ixtisoslashtirilgan.

Fermer xo'jaligida qishloq xo'jalik maxsulotlari yetishtirishda davlat buyurtmasi asosida paxta va bug'doy uchun Shartnomaviy munosabatlar asosida faoliyat tashkil etilgan bo'lib, avvalo xo'jalikda asosiy ekin xisoblangan paxta yetishtirishni iqtisodiy samaradorligi oxirgi uch yil mobaynidagi bu soxadagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar atroflicha o'rganib chiqildi.

Paxta yetishtirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, harajatlarni kamaytirish agrar soha iqtisodiyotini mustahkamlashning asosiy vazifasidir. Chunki paxta xom ashyosi sanoat korxonalari uchun o'ta muxim va zaruriy maxsulot hisoblanadi. Bundan tashqari paxta xom ashyosi respublikaning asosiy valyuta tushumini ta'minlab beruvchi tovar mahsuloti hisoblanadi.

Paxta yetishtirishda keyingi yillarda bir qator o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, paxta yetishtirishni ko'paytirish ekin maydonlari hisobiga emas, aksincha harajatlarni kamaytirib, hosildorlikning ortishi hisobiga erishilmoqda. Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida 2013 yilda 40 gektar maydonda paxta yetishtirilib, gektariga 31,9 tsentnerdan hosil olishga erishgan. 2013 yilga kelib aptimallashtirish natijasiga ko'ra paxta maydoni o'zgarmagan 40,0 gektar bo'lib xar bir gektar paxta maydonidan 32.4 tsentner paxta xoslini olishga erishgan. 5-jadvalda Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida paxta ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, paxta yetishtirishda 2013-2015 yillarda iqtisodiy samaradorlik bir oz yaxshilangan. Buni biz yakuniy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi bo'lgan rentabellik darajasidan ko'rishimiz mumkin.

Rentabellik darajasi tahlil etilayotgan davrda 14.3%dan 13.3%ga kamaygan-1.0 darajaga o'zgargan. Buni sabablari banitet ballari pastroq bo'lgan yerlarni aptimallashtirish natijasiga ko'ra qo'shilganligidir. Ammo bu ko'rsatkich hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish Sharoitida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlay oladigan 30-35%lik darajadan ancha pastdir.

Aks holda, xo'jalik paxta yetishtirish bo'yicha kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni o'z mablag'lari hisobiga amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Xulosa qilib aytilganda, fermer xo'jaligi o'zi yetishtirgan paxta xom ashyosini sotishdan olgan foydasi hisobidan o'z xodimlarini moddiy jihatdan rag'batlantirish, ijtimoiy va madaniy inshootlarni barpo etish hamda ishlab chiqarishni kengaytirish fondlarini amaldagi me'yorlarga mos holda shakllantira olishi lozim. Demak, fermer xo'jaligini foydasi uni barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan uchta asosiy fondlarni to'la shakllantirishga yetishi kerak.

5-jadval

Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida paxta ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi

№	Ko'rsatkichlar	o'lchov birligi	2013 y.	2013 y.	2015y	2015 yilda 2013 yilga nisbatan %
1	Ekin maydoni	ga	40	40	40	100
2	Hosildorlik	ts\ga	31.9	32.9	32.4	101.5
3	Yalpi hosil	ts	1276	1316	1296	102
4	Ishlab chiqarish Harajatlari Shundan: ish haqi	m.s m.s	85504.7 21376	96502.2 21230	114135 29675	133.5 138
5	Hodimlar soni	nafar	19	19	17	89
6	Yalpi mahsulot	m.s	97787.5	111186	129356.3	132
7	Foyda	m.s	12282.8	15357.8	15221.3	124
8	1 tsentner paxtani Tannarxi	so'm	67010	73330	88067	131
9	1 tsentner paxtani sotish bahosi	so'm	76636	85000	99812	130
10	1 gektar hisobiga: a) Yalpi mahsuloti	m.s	2444	2779	3234	132
11	1 hodim hisobiga: A) Yalpi mahsulot B) ish haqi	m.s m.s	5146 1125	5852 1117	7609.2 1745.5	148 155
12	Rentabellik	%	14.3	16	13.3	-1.0

Manba: Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Shundagina xo'jalik paxtachilikni jadal rivojlantirish asosida uni iqtisodiy samaradorligini talab darajasiga yetkazishi mumkin.

Har qanday qishloq xo'jaligi mahsulotini, jumladan paxta xom ashyosini yetishtirish uchun moddiy-texnika resurslaridan, yer, suv va mehnat resurslaridan foydalaniladi.

Paxta yetishtirishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish


fermer xo'jaligining mahsulot yetishtirish va realizatsiya qilishga sarflanadigan barcha harajatlarining puldagi ifodasi bo'lgan tannarxni aniqlashdan boshlanadi. SHu sababli mahsulot tannarxi eng muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib, fermer xo'jaligining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatining ijobiy yoki salbiy tomonlarini o'zida aks ettiradi.

Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida paxta yetishtirish jarayonida mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini 1-chizma yordamida ko'rib chiqamiz.

CHizma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mehnat unumdorligining ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan paxtachilikda 1 hodim hisobiga to'g'ri keluvchi Yalpi mahsulot miqdori 2013 yildagi 5146 ming so'mdan 2013 yilda 7609.2 ming so'mgacha yetgan yoki 148 foizga o'sgan. 1 hodim hisobiga to'g'ri keluvchi ish xaqi esa 2013 yildagi 1126 ming so'mdan 2015yilda 1745.2ming so'mgacha yetgan yoki 155foizga o'zgargan.

1-chizma

Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida paxta ishlab chiqarishdagi mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari



Rentabellik oshishining omili sifatida esa Yalpi mahsulotning ishlab chiqarish harajatlariga nisbatan ustun darajada o'sishini ko'rsatish mumkin. Xaqiqatdan, 2013-2015 yillarda ishlab chiqarish harajatlari 1.52 martaga oshgan bir paytda Yalpi mahsulotning hajmi 1.57 marta oshgan. Yalpi mahsulot bilan ishlab chiqarish harajatlarning farqi sifatida topiladigan foyda miqdori taxlil davrida 12282.8 ming so'mdan 15221.3 ming so'mgacha yetgan yoki 124foizga o'zgargan. Ishlab chiqarish harajatlari yalpi hosilga bo'lish natijasida 1 ts paxtaning tannarxini topish mumkin. Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida tannarx 88067 so'mdan tushgan bir davrda paxtaning sotish bahosi 99812 so'mga to'g'ri kelgan.

Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida 1 ts paxta tannarxi 2013 yildagi 67010 so'mdan 2015 yilda 88067 so'mga yetgan yoki 131foizga o'sgan. Davlat buyurtmasi uchun kontraktatsiya Shartnomasi asosida yetishtirilayotgan 1 ts paxtaning sotish bahosi esa 2013 yildagi 76636 so'mdan 2015 yilda 99812 so'mga yetgan yoki 130% ga oshgan.

Har qanday qishloq xo'jaligi mahsulotini, jumladan paxta xom ashyosini yetishtirish uchun moddiy-texnika resurslaridan, yer, suv va mehnat resurslaridan foydalaniladi. Paxta yetishtirishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish fermer xo'jaligining mahsulot yetishtirish va realizatsiya qilishga sarflanadigan barcha harajatlarning puldagi ifodasi bo'lgan tannarxni aniqlashdan boshlanadi. SHu sababli mahsulot tannarxi eng muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib, fermer xo'jaligining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatining ijobiy yoki salbiy tomonlarini o'zida aks ettiradi.

Ma'lumki, paxta xom ashyosini yetishtirishda fermer xo'jaliklarida moddiy harajatlari, ish haqi, ijtimoiy ajratmalar, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirishi, boshqa harajatlari nisbatan o'zgarmagan. Andijon viloyati Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida paxta yetishtirish tannarxi tarkibida mexanizatsiya xizmatlari sarfi 4,4-6,2%ni tashkil etmoqda. Shuning uchun ham texnika va yoqilg'i sarfini kamaytirish mahsulot daromadini oshirishda ta'sir ko'rsatadigan amaldir. Hisob-kitoblari ko'rsatishicha, paxtachilik sohasida

yerga ishlov berish texnikasidan foydalanish fermerning daromadining 10-15 foizga ortishiga olib keladi. Jumladan, yerni chuqur og'darib haydalmasdan otvalsiz tunar bilan xaydash hisobiga yoqilg'i sarfi 2 texnikaning ish unumdorligi esa 1,5 barobarigacha ortishi mumkin

Ma'lumki paxtachilikda maxsulot xajmini ko'paytirish, sifatini yaxshilash ko'p jihatdan mineral o'gitlar bilan o'z vaqtida va yetarli miqdorda ta'minlanishi, ularni qo'llashda aniq asoslangan me'yorlarga amalga qilishga bog'liq. Bizga yaxshi ma'lumki, paxtachilikda moddiy resurslarning ortiqcha sarfiga yo'l qo'yishda, moddiy sarflar hisobini to'g'ri tashkil etmaslik, unumdorligi past yerda joylashgan paxta va g'alla yetishtiruvchi fermerlar hosildorlikni inobatga olmay, mineral o'g'it, yoqilg'i moylash materiallari va boshqa resurslar sarf qilishga sabab bo'lmoqda.

Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida paxta yetishtirish harajatlari va ularning tarkibi. 6 jadval.

№	Harajatlar Turi	2013 yil.		2014yil.		2014 yil.	
		m.s	%	m.s	%	m.s	%
1	Moddiy harajatlar	53440.4	62,5	58287.3	60.4	66084.2	57.9
	a) urug'lik	7748.8	14,5	9792.2	16.8	13415.0	20.3
	b)o'g'itlar	20576	38.5	24130.9	41.4	27292.7	41.3
	v) YO.M.M	10100.2	18.9	11715.7	20.1	14340.2	21.7
	g) ish va xizmatlar	9886.4	18.5	10958.0	18.8	7004.9	10.6
	d)boshqa xarajat	5130.2	9.6	16903.	2.9	40311	6.1
2	Mehnat haqi harajatlari	21376	25.0	21230	22.0	29675	25.9
3	Ijtimoiy ajratmalar	1197	1.4	1640.5	1.7	2853.3	2.5
4	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar eskirishi	5130.2	6.0	6755.1	7.0	10043.8	8.8
5	Boshqa harajatlar	4360.7	5.1	8588.7	8.9	5592.6	4.9
	Jami harajatlar	85504.7	100	96502.2	100	114135	100

Manba: Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Natijada hosildorligi past bo'lgan yerlarda ishlovchi xo'jaliklar yil yakuni bo'yicha zarar ko'rishiga olib keladi eskirishiga amortizatsiya ajratmalari va boshqa harajatlar sarflanadi. Paxtachilikdagi ishlab chiqarish harajatlarining batafsil tavsifi O'zbekiston Respubikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'grisidagi Nizom»da keltirilgan.7-jadval

Endi biz shu Nizomga asosan paxta xom ashyosi ishlab chiqarish harajatlarini bevosita Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligi misolida 6-jadval yordamida ko'rib chiqamiz. Xo'jalikning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda asosiy omillardan biri ishlab chiqarish harajatlari hisoblanadi. Mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish harajatlari qancha kam bo'lsa, samaradorli shuncha yuqori bo'ladi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida paxta yetishtirish uchun sarflangan harajatlar barcha elementlar bo'yicha 2013 yilga nisbatan kamaygan.Jumladan, moddiy harajatlar jami ishlab chiqarish harajatlarining salmoqli 62.5-57.9 foizini tashkil etgan.

Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida mineral o'gitlar uchun harajatlar 2013 yilda 7748.8 ming so'mdan 2015 yilda 13415 ming so'mga yetgan. Jami harajatlar tarkibida esa 20.3%ni tashkil etgan.

Paxta yetishtirish jarayonida dexqonning kanoti bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikalarini o'rni juda katta. Albatta ulardan foydalanish jarayonida yoqilg'i-moylash materiallari, extiyot kismlar va texnik servis xizmatlari uchun harajatlar talab qiladi.SHu o'rinda dizel yokilgisi harajatlari salmoqli ahamiyat kasb etadi.Taxlil davrida Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida 10100.2 ming so'mdan 14340.2 ming so'mgacha, ya'ni jami harajatlarning 21.7 foizi mikdorida harajat kilingan.

Fermer xo'jaligi a'zolari ish xaki to'lash uchun 26.0 foiz atrofida ajratilgan. Ish xaki 2013 yilda 21376 ming so'mdan 2015 yilda 29675ming so'mga yetgan.

Avvalgi bo'limda ta'kidlanganidek, xo'jalikning asosiy vositalari mavjud bo'lib, tegishli miqdorda (7418.4ming so'm) amortizatsiya to'lovlari o'tkazib borilgan.

Jami ishlab chiqarish harajatlari 2013 yildagi 85504.7 ming so'mdan 2015 yilda 114135 ming so'mgacha o'zgargan.

Etishtirilgan paxta xosilining Yalpi maxsuloti mikdori tayyorlov korxonalariga yetkazilgan paxtaning kaysi navga kabul kilinishiga bog'lik. Endi xo'jalikning iqtisodiy samaradorlik omillaridan bo'lgan paxta sifatini ko'rib chiqamiz. 7-jadvalda Izboskan xirmoni baraka xo'jaligida yetishtirilgan paxtaning navlar bo'yicha taqsimlanishi aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2015 yilda Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida sotilgan paxtaning 75.8 foizi yoki 974.7 tsentneri Yuqori 1-navlarga tegishlidir. 1-navdagi paxta uchun olingan haq jami 97286.7 ming so'm miqdorida bo'lgan. Bundan tashqari, 201.9 ts yoki 15.7% 1tip-2-navga topshirilgan. Oz miqdorda 1tip-3 navga ham 8,5% miqdorida paxta topshirilgan. 2013-2015 yillarda Andijon viloyatining barcha hududlari singari paxta terimini kamida 85% ko'saklar ochilganda boshlangan va birdaniga terib olingan. Terimni otryad usulida olib borish tashkil qilingan. Ushbu Chora tadbirlar o'z ijobiy natijasini bergan holda 2015 yilda 75.8% qismi yoki 974.7 ts paxta 1-navga, qolgan 15.7% qismi yoki 201.9 ts paxta 2-navga, 8.5% qismi yoki 109.3ts 3-naga topshirilgan. Ushbu holat fermer xo'jaligining paxtadan salmoqli pul daromadi olishining omili bo'lgan. Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida sug'orish uchun suv bilan ta'minlanganlik darajasi yaxshi. Farg'ona kanalidan olinadigan suv me'yordagidan ko'ra 2013 yilda 10-11% ga kam bo'lgan bo'lsa, 2015 yilda yetarlicha suv bilan ta'minlangan. Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida oxirgi uch yil mobaynida S-6524 paxta navi ekib kelingan. Xo'jalikda mineral va organik o'g'itlardan ilmiy asoslangan tavsiyalarga asosan foydalanishga harakat qilinmoqda. Bundan tashqari qish oylarida xo'jalik a'zolarining va mahalla fuqarolarining uylaridan organik o'g'itlarni chiqarib, yanvar-fevral oylarida xo'jalik maydonlariga solish kerak. tashqari qish oylarida xo'jalik a'zolarining va mahalla fuqarolarining uylaridan organik o'g'itlarni chiqarib, yanvar-fevral oylarida xo'jalik maydonlariga solish

kerak. Yuqoridagi barcha Chora-tadbirlarni o'zida jamlagan holda Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida paxta yetishtirishni 15-20% gacha oshirish mumkin. Buning uchun Yuqorida tavsiya qilingan tadbirlarni o'zida jamlagan paxta yetishtirishni ko'paytirish dasturi to'zishni takomillashtirish kerak.

7- jadval

Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligini sotilgan jami paxtasini navlar bo'yicha taqsimlanishi.

Sanoat navi	Sinfi	2013- yil.		2014 yil.		2015- yil	
		miqdori ts	%	miqdori ts	%	miqdori ts	%
I	1	191.4	15	1084.3	82.4	974.7	75.8
	2	969.8	76,0	138.2	10.5	201.9	15.7
	3	114.8	9,0	93.4	7.1	109.3	8.5
	Jami	1276	100	1316	100	1286	100
II	1						
	2						
	3						
	Jami						
III	1						
	2						
	3						
	Jami						
IV	1						
	2						
	3						
	Jami						
V	1						
	Jami						
Hammasi		1276	100	1316	100	4031.1	100

Manba: Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligi ma'lumotlari asosida tuzildi

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Sharoitida fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorligi bir nechta ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi.

Buning uchun Yalpi mahsulot, ishlab chiqarish harajatlari va xo'jalik faoliyati natijasida olingan foyda asos bo'ladi. Rentabellik darajasini foydaning ishlab chiqarish harajatlariga nisbati orqali topilishini inobatga oladigan bo'lsak, ravshan bo'ladi, foydaning darajasi Yuqori va harajatlarning nisbatan past darajada bo'lishi talab etiladi.

Islohotlarning hozirgi bosqichida, erkin narxlar amal qiluvchi bozor iqtisodiyotida moddiy –texnika resurslarining narxлари va o'z navbatida bug'doy ishlab chiqarish harajatlari ob'ektiv tarzda o'sib borishini keltirib chiqaradi.

8-jadvalda Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligining g'allachilik tarmog'ida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari keltirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil etilayotgan 2013-2015 yillarda bir qator ijobiy natijalarga erishilgan. Jumladan, ekin maydoni 2013 yilga nisbatan o'zgarmagan bo'lsada, bug'doy Yalpi hosili xam Shunga mos ravishda pararel o'sgan. Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida bug'doy ishlab chiqarish harajatlari 2013 yildagi 45802.5 ming so'mdan 2015 yilda 85806.5 ming so'mga yetgan yoki 187.3foizga ortgan. Xozirgi murakkab o'tish Sharoitida bug'doy yetishtirish uchun talab qilinadigan moddiy-texnika resurslarining narxлари ortib borishi ob'ektiv jarayon bo'lganligi uchun ishlab chiqarish harajatlari ortib bormoqda. Ushbu holat albatta biz tahlil qilayotgan fermer xo'jaligiga ham taalluqlidir. Rivojlanishga harakat qilayotgan Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida Yalpi mahsulotni ishlab chiqarish harajatlaridan ustun darajada o'stirishga erishilgan. Bug'doy Yalpi mahsuloti hajmi 2013 yildagi 63009.3 ming so'mdan 2015 yilda 123560.5 ming so'mga yetgan yoki 196 foizga o'zgargan. Buning asosiy omillari sifatida hosildorlikning 65ts yetishtirilishga erishilganligidir. 1ts bug'doyning sotish bahosi 52595so'mdan 56783 so'mgacha ortishini ko'rsatish mumkin. G'allachilik tarmog'idagi Yalpi mahsulot hajmidan ishlab chiqarish harajatlarini ayirib tashlash natijasida fermer xo'jaligining foydasi hisoblanadi. Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida g'allachilikdagi

foйда 17771.3 ming soʻmdan 37754 ming soʻmgacha yoki 2.12 martaga ortgan. Fermer xoʻjaligining yerdan foydalanish boʻyicha iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi koʻrsatkichlari ancha yaxshilangan.

8-jadval

Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xoʻjaligida bugʻdoy yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi

№	Koʻrsatkichlar	Oʻlchov birligi	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2015 yilda 2013 yilga nisbatan %
1	Ekin maydoni	ga	32	32	32	100
2	Hosildorlik	ts\ga	62	65	68	107
3	Yalpi hosil	ts	1198	2080	2176	182
4	Ishlab chiqarish harajatlari Shundan: ish haqi	m.s m.s	45802.5 10488	75075 18243.2	85806.5 19907	187.3 189
5	Hodimlar soni	nafar	7	7	7	100
6	Yalpi mahsulot	m.s	63009.3	110660	123560.5	196
7	Foyda	m.s	17771.3	35585	37754	212
8	1 tsentner bugdoyni Tannarxi	soʻm	38232	36093	39433	103
9	1 tsentner bugdoyni sotish bahosi	soʻm	52595	53201	56783	108
10	1 gektar hisobiga: a) Yalpi mahsuloti	m.s	1969	3458	3861	196
11	1 hodim hisobiga: a) Yalpi mahsulot b) ish haqi	m.s m.s	9001.3 1498.2	15809 2606.1	17651 2843.8	196 189
12	Rentabellik	%	39	47,4	44	+5

Manba: Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xoʻjaligi maʼlumotlari asosida tuzildi

Jumladan 1 gektar bug'doy ekilgan maydonga to'g'ri keluvchi Yalpi mahsulot hajmi 2013 yildagi 1969 mingso'mdan 2015 yilda 3861ming so'mga yetgan yoki 196foizga o'zgargan. Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligining g'allachilik tarmog'ida ishlash uchun jalb etilgan 7 nafar ishchining o'rtacha har biriga to'g'ri keluvchi Yalpi mahsulot hajmi 2013 yildagi 1498.2mingso'mdan 2015 yilda 2843.8 ming so'mgacha o'zgargan yoki 189% ni tashkil etgan.

Shu o'rinda har bir ishchining yillik ish haqi 19907 ming so'mni tashkil etgan.

Yuqoridagi barcha ko'rsatkichlarni umumlashtirgan holda g'allachilikda yakuniy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi bo'lgan rentabellikni aniqlash mumkin. Fermer xo'jaligining g'allachilikdan olgan foydasini jami ishlab chiqarish harajatlariga nisbatini foiz hisobida olish natijasida rentabellik darajasi 2013 yildagi 39% darajadan 2015 yilda 44.0% ga yetgan.

Bu ko'rsatkichning yaxshilanishi sababi Yuqorida ta'kidlanganidek, Yalpi mahsulot hajmini ishlab chiqarish harajatlariga nisbatan ustun darajada o'sishi hisoblanadi. Ammo bu hali kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlay olmaydi. Hozirgi Sharoitda optimal rentabellik bo'lgan 50-55%li rentabellik darajasiga erishish uchun hali imkoniyatlar mavjud.

Xo'jalikning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda asosiy omillardan biri ishlab chiqarish harajatlari hisoblanadi. Mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish harajatlari qancha kam bo'lsa, samaradorlik Shuncha Yuqori bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish harajatlarining muntazam ortib borishi qonuniyatli jarayondir. Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirish uchun sarflangan harajatlarni 9-jadval yordamida ko'rib chiqamiz. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish harajatlarining salmoqli qismini moddiy harajatlar egallaydi va 2013-2015 yillarda mos holda 60,8 va 61,6 foizni tashkil qilgan. Moddiy harajatlar tarkibiga esa, ma'lumki, bevosita hosildorlikka ta'sir etuvchi urug'lik, mineral o'g'itlar, yoqilg'i, ish va texnik xizmatlar, o'simliklarni zararkunandalardan himoya qilish kabi harajatlar kiradi.

9-jadval

Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirish harajatlari va ularning tarkibi

№	Harajatlar turi	2013y		2014 y		2015y	
		ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%
1	Moddiy harajatlar	27847.9	60,8	43393.3	57,8	52856.8	61,6
	a) urug'lik	2534.1	9,1	3775.2	8,7	5391.1	10,2
	b) o'g'itlar	5179.7	18,6	78514.1	18,1	9355.6	17,7
	v) YO.M.M	3675.9	13,2	5641.1	13	7452.8	14,1
	g) ish va xizmatlar	4761.9	17,1	5597.7	12,9	7294.2	13,8
	d) boshqa moddiy harajatlar	779.7	2.8	2213.0	5,1	3065.9	5,8
2	Mexnat xaqi harajatlari	10488	22,8	18243.2	24,3	19907	23,2
3	Ijtimoiy ajratmalar	2702.3	5,9	4354.3	5,8	4805.1	5,6
4	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni eskirishi	2061.1	4,5	3603.6	4,8	3689.6	4,3
5	Boshqa harajatlar	2794	6,1	5480	7,3	4547.8	5,3
	<i>Jami</i>	45802.5	100	75075	100	85806.5	100

Manba: Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligi ma'lumotlari asosida tuzildi

Neft bazasi bilan yoqilg'i-moylash materiallari yetkazib berish bo'yicha shartnoma to'zilgan. Qishloq xo'jaligida bug'doy yetishtirish jarayonida yerni ekishga tayyorlash, ekish, o'g'itlash, hosilni o'rib-yig'ib olish kabi ko'rsatiladigan texnik xizmatlar uchun yoqilgi sarflanadi. Moddiy harajatlar tarkibida yoqilg'i uchun sarflangan harajatlar 2013-yilda 27847.9 ming so'mdan 2015-yilda 52856.8ming so'mga yetgan. Yoqilg'i-moylash materiallarining jami bug'doy yetishtirish harajatlardagi salmog'i tahlil davrida 13,2-14,1 foizni tashkil etgan.

Mehnat haqi harajatlari ham jami ishlab chiqarish harajatlarning 23 foizi atrofida saqlanib turibdi. Xo'jalikdagi ishchilarni moddiy jihatdan yaxshi ta'minlash, albatta mehnat natijalaridan manfaatdorlikni oshiradi. shu sababli xo'jalikda tahlil davrida jami 10488ming so'm va 19907ming so'm ish haqiga ajratilgan.

Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirish harajatlari barcha elementlari bo'yicha 2013 yilga nisbatan keskin o'sgan bo'lsada, Yalpi mahsulotning undan Yuqorirok darajada oshishi hisobiga Yuqori rentabellik darajasiga erishilgan.

Mazkur holat Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida barcha ishlab chiqarish harajatlarini to'g'ri rejalashtirilgan holda oqilona sarflanganligini va Shuning natijasida g'allachilikda ijobiy 44.0%lik rentabellikka erishganligini ko'rsatadi.

Fermer xo'jaligini rivojlanganligini yana bir ko'rsatkichlaridan bug'doy yetishtirishni tumandagi iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan solishtirima taxlilini ko'ramiz. 11-jadvalda Izboskan tumandagi «Izboskan xirmoni baraka » fermer ho'jaligi Izboskan tumani bilan bug'doy yetishtirishning solishtirma iqtisodiy ko'rsatkilari aks ettirilgan. Fermer ho'jaligining iqtisodiy samaradorligi tumanga nisbatan yuqori bo'lib ayrim ko'rsatkichlarni taxlil qilganimizda iqtisodiy samaradorlikning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan rentabellikning 39 foizdan 44 foizga ya'ni +5.0 darajaga o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin. Xulosa qilib so'z yuritadigan bo'lsak «Izboskan xirmoni baraka» fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini domiy ravishda rentabellik ko'rsatkichlarini ko'tarishga xarakat qilib turish uchun doimiy ravishda izlanish kerak.

10-jadval

**Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida yetishtirilgan
bug'doyninng Izboskan tuman iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bilan
solishtirishma taxlili 2015-yil**

	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Izboskan tuman	Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligi	Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligi tumanga nisbatan
1	Ekin maydoni	ga	7414	30	X
2	Hosildorlik	ts\ga	57.8	65	112.5
3	Yalpi hosil	t	42857	1950	X
4	Ishlab chiqarish harajatlari Shundan: ish haqi	m.s m.s	197190000 1457000	85806.5 19907	X X
5	Foyda	m.s	5505000	37754	X
6	1 tsentner bugdoyni tannarxi	so'm	33160	44003	132.6
7	Rentabellik	%	38.7	44	+5.3

Manba: Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligi ma'lumotlari asosida tuzildi

3-bob: “Izboskan xirmoni baraka” fermer xo’jaligida agrotexnologiya ni qo’llash natijasida mehnat unumdorligini oshirishni yo’llari va omillari

3.1.Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo’jaligida samarali agrotexnologiyalarni qo’llash

Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo’jaligida paxta va bug’doy yetishtirishga ixtisoslashgan. Fermer xo’jaligida paxta va bo’g’doydan yuqori xosildorlikga erishish uchun agrotexnologiyalarni qo’llash zaruratga aylanganligini xisobga olib dastlab fermer xo’jaligidagi yer maydonlarni ishlov berish kerak bo’ladi.

Yerga ishlov berish texnologiyasi

Yerga ishlov bermasdan unda ekin yetishtirib bo’lmaydi. Tuproq o’simlik ildizi uchun yetarli darajada yumshoq bo’lganda, uning suvi, fizik xususiyatlari va mikroorganizmlarning faoliyati yaxshi bo’ladi. yerni ishlash deganda uni shudgor qilish, tekislash, asosiy ishlov berish, boronalash, kultivatsiyalash, chizellash, mola bosish kabilar tushuniladi.

Bir-biri bilan bog’liq holda o’tkaziladigan tuproqqa xar xil mexanik ta’sir etishlarga yerni ishlash tizimi deyiladi. yerni ishlanganda tuproq (suv, xavo, issiqlik va oziq) rejimlarining yaxshi bo’lishi uchun qulay Sharoit yaratiladi, ya’ni xaydalma qatlam to’zilishi va uning donadorligi o’zgaradi; tuproqning quyi qatlamidagi oziq moddalar yuqoriga ko’tarilib, uning aylanishi davri va mikrobiologik jarayonlar tezlatiladi; begona o’tlar yo’qotiladi; organo-mineral o’g’it va ang’izlar tuproqqa qo’shiladi; tuproq yuza qatlamida yoki o’simlik qoldiqlarida yashayotgan ekinlarning zararkunanda va kasallik qo’zg’atuvchilari yo’qotiladi; yerni ekin ekishga tayyorlash, egat va jo’yak olish hamda ekinni parvarish qilishda qator orasiga ishlov berish; begona o’tlarni yo’qotish kabi ishlar bajariladi.

Yerni ishlashda quyidagi texnologik jarayonlar amalga oshiriladi: yer qatlamini ag’dariladi, aralashtiriladi va yumshatiladi; begona o’t ildizlari qirqiladi, tuproq zichlanadi, tekislanadi, egat va jo’yak olinadi. yer zaruriyatga qarab yuza xaydov

chuqurligida yumshatiladi. Xaydalma qatlam tuprog'ini aralashtirish natijasida tuproqdagi organik va mineral o'g'itlar, mikroorganizmlar xaydalma qatlamda bir tekis taqsimlanib, tuproq unumdorligini oshiradi. Tuproqni zichlash, ya'ni mola bostirilganda kapillyar g'ovakligi ortadi. Ekilgan urug'larni pastki qatlamda namlik bilan ta'minlash yaxshi bo'ladi. Sug'oriladigan dehqonchilikda yerni tekislashning ekin ekish va uni parvarish qilish uchun ahamiyati katta, bunda sifatli ekish, sug'orish, parvarish qilish uchun Sharoit yaratiladi.

Yer haydalganda ag'darilayotgan qatlamlar 135-145 qiyalikda bir-biriga yonboshlasa, qatlam chala, qatlam 180 ag'darilsa, to'liq ag'darilgan hisoblanadi. yerni xaydash sifati plug ag'dargich (otval) larining shakliga bog'liq. Ular vintsimon, tsilindrsimon, yarim vintsimon va madaniy bo'ladi.

Madaniy otvalli pluglar qatlamni yaxshi uvoqlaydi va ag'daradi. 1870 yili Rudolf Sakk yarim vintli va tsilindrik otvalli pluglardan madaniy otvalli plug yaratdi. Bu plugning asosiy korpusi oldiga kengligi asosiy korpusning 2/3 kismiga teng keladigan chimqirqar o'rnatilgan. Xozirgi vaktida yer ko'proq P-5-35 M, PN-4-35 markali tirkama yoki osma pluglar bilan xaydalmokda. Keyingi yillarda chimqirqarning kengligini 27 sm gacha uzaytirilgan. PYA-3-35 markali ikki yarusli pluglardan foydalanilmoqda. Xozirgi davrda shamol eroziyasiga moyil yerlarni ag'darmasdan, ang'izlar saqlangan xolda asosiy ishlov berish usuli keng qo'llanilmokda.

Yerni sifatli ishlash qo'llanilayotgan qurolning to'zilishiga, ya'ni plug otvalining shakliga, ishchi organlarning turiga, agregatning yurish tezligiga va tuproqning texnologik xossalariga bog'liq. Tuproqning texnologik xususiyati uning ilashimlilik, yopishqoqligi va xajmiy og'irligi bilan ifodalanadi. Bu xususiyat uning namligi, mexanik tarkibi, qattiqligi, donadorligi va boshqalar bilan belgilanadi. yerning sifatli ishlanishi dalaning o'simlik qoldiqlari va begona o'tlar bilan ifloslanganlik darajasiga ham bog'liq. Sernam yer xaydalganda yaxshi maydalanmaydi, qatlami uvoqlanmaydi, quruq xaydalganda esa katta-katta palaxsalar ko'chadi, og'ir va yengil soz tuproqli yerlar namligi to'la nam sig'imiga

nisbatan 40-60% bo'lganda xaydalsa yaxshi uvoqlanadi. Tuproq namligi ortiq bo'lsa u ishchi organlarga yopishib yer sifatsiz xaydaladi.

Yer asosi 2 usulda, ya'ni aylanma yoki shaklli va taxta (zagon) larga bo'lib xaydaladi. Aylanma yoki shaklli xaydash uchastkaning urtasi yoki Chekkasidan boshlanadi. Bunda plug qayrilishlarda xaydash chuqurligidan ko'tarilmaydi xaydash esa uchastkaning o'rtasi yoki Chetida tugallanadi. Bu usulda xaydash chuqurligi xamma yerda bir tekis bulmaydi. Shuning uchun dexkonchilikda aylanma yoki shaklli xaydash usuli man etilgan.

Dala to'g'ri taxtalarga – zagonlarga bo'lib xaydalganda sifatli bo'ladi. Traktorning salt yurishini marza va egatlar sonini kamaytirish uchun taxtaning eni 40-80 m bo'lgani yaxshi. yer soatiga 7-7, 5 km tezlikda xaydalsa, qatlam yaxshi ag'dariladi, uvoklanadi va tekis bo'ladi. Xaydov sifati yerni xaydash vaqtida yoki xaydalgandan keyin tekshiriladi. yerning sifatli xaydalishi bu tadbirning o'z vaqtida o'tkazilishiga, chuqurligi agregat buriladigan joydan taxtaning oxirigacha bir xil bo'lishiga bog'liq.

Bedapoya va ang'izlar ayniqsa, sifatli xaydalishi kerak, qatlam to'la ag'darilmasa, erta baxorda beda yoki begona o'tlar o'sib chikadi, organik massalar tuproqqa yaxshi ko'milmay, ekin sifatsiz ekiladi. Organik massalar, xas va cho'plarning 10 foizi tuproqqa ko'milmay qolsa, yer sifatsiz xaydalgan xisoblanadi.

Diametri 5 sm dan katta kesaklar palaxsa xisoblanadi. 1 m da o'rtacha 5 ta dan ortik palaxsa bo'lsa, xaydash qoniqarsiz xisoblanadi.

Takroriy ekin ekiladigan yer tuprog'i yaxshi uvoqlanishi kerak, aks xolda uni maydalashga ko'p mexnat va yonilgi sarf bo'ladi, kuzgi shudgorda palaxsa xosil bo'lsa ham zarari yuk, chunki kishki yog'in-sochinda ular maydalanib ketadi. Ko'z bilan chamalaganda chala joy umumiy maydonning 0,2% idan ortiq bulmasligi lozim, aks xolda yer konixarsiz xaydalgan xisoblanadi.

Chigitni erta undirib olishning ahamiyati

Chigitni erta, to'liq va qiyg'os undirib olish agrotexnik tadbirlar orasida muhim o'rin egallaydi chigit ekilgandan keyin uning tuproqdagi holatini va nish

urishini muttasil kuzatib borish lozim. Sug'oriladigan paxtachilik tumanlarida kuchli jaladan keyin tuproq yuzasida hosil bo'lgan qatqaloqni tez yumshatish endigina unib chiqqan nihollarni saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega. Qatqaloqqa qarshi ko'rashni birinchi imkoniyat bo'lishi bilanoq boshlash zarur, aks holda paydo bo'lgan nishlar qatqaloqni yorib chiqolmay ko'pincha nobud bo'ladi, unib chiqqan nihollar esa juda ezilib qoladi. Tarkibida chirindi kam bo'lgan strukturasiz bo'z tuproqlarda qatqaloq paydo bo'lishi juda xavfli hisoblanadi. Bunday yerlarda qatqaloq qalinligi 3-4 sm ga yetishi va undan ham oshishi mumkin. Agar u o'z vaqtida yumshatilmasa juda qotib ketadi. Natijada keyin uni yumshatish juda qiyin bo'ladi. Bunday tuproqli yerlarda nam ham tez ko'tarilib ketadi. Strukturali tuproqlarda yog'ingarchilik natijasida to'plangan namning deyarli hammasi kesakchalar orasidan sizib o'tib tuproqqa yaxshi shimiladi va u shu yerda saqlanib qoladi. Strukturali tuproqlarda bug'lanish sekin bo'ladi, u namni uzoq saqlaydi, tuproq yuzasida qatqaloq deyarli hosil bo'lmaydi. Chigitni undirib olishda har galgi yog'ingarchilikdan keyin qatqaloq hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik juda muhimdir. yer obi-tobiga kelishi bilanoq tuproqning ustki qismini bir ikki kun ichida yumshatishni tugallash lozim. Bu namning ko'tarilib ketishini kamaytiradi, tuproqning issiqlik rejimini yaxshilaydi va Chigitni sog'lom undirib olish imkonini beradi.

Qatqaloq paydo bo'lganligi sababli chigit unib chiqmagan dalalarda zig-zag baronalar bilan ko'ndalangiga, rotatsion yumshatgichlar bilan uzunasiga qarab 4-5 sm chuqurlikda yumshatish tavsiya etiladi. Chigit unib chiqqandan keyin qatqaloq paydo bo'lsa boronadan foydalanish mumkin emas. Bunday hollarda rotatsion yumshatgichlardan hamda rotatsion Yulduzchalardan foydalanish zarur.

Chigit ekilgandan so'ng kunlar isib, nam tez ko'tarilib ketsa kutib o'tirmasdan tezda chigit suvi berish kerak. Suv sarfi kam normada $600-700 \text{ m}^3$ egat oralab yoki hamma qatorlarga yerning strukturasi, nishabligiga qarab, bu ishni o'ta tajribali suvchi amalga oshirsa juda ham yaxshi bo'ladi. Chigit tor qatorlab ekilgan, nishabi kam, suv o'tkazuvchanlik qobiliyati yaxshi bo'lgan dalalarda o'qariqlarni 70-100 m dan, o'ta nishab va tuprog'i suvni yaxshi o'tkazmaydigan

dalalarda esa har 110-150 m dan keyin olish tavsiya etiladi. Shunga mos ravishda keng qatorlab ekilgan dalalarda 100-130 m va 150-180 m bo'lishi lozim. Sug'orish egatlarining chuqurligi tuproq Sharoitiga qarab 10-14 sm bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Dalada belgilangan miqdorda ko'chat bo'lishini ta'minlash uchun siyrak va xato chiqqan joylarga qo'shimcha ravishda dorilangan va namlangan Chigit ekish kerak. Xatosiga ekish uchun shu dalaga qaysi nav va nechanchi reproduktiv Chigit ekilgan bo'lsa albatta xuddi shu nav va reproduktiv Chigit ekilishi Shart. Xatosiga Chigit ekiladigan yerlarda tuproqda yetarli miqdorda nam bo'lishi kerak, Chunki nish urgan Chigit quruq tuproqda unib chiqish qobiliyatini yo'qotadi va nobud bo'ladi.

G'o'za nihollarini yaganalashni nihollar to'liq unib chiqqandan boshlab 1 ta 2 ta chin barg paydo bo'lishgacha tugallash lozim. Yaganalash kechiktirilsa g'o'zaning o'sish, rivojlanishi va hosildorligiga taaluqli barcha ko'rsatkichlar pasayib ketadi, Chunki yaganalash cho'zilib ketsa g'o'za nihollari o'zlari bilan birgalikda ozuqa moddalarini ko'proq miqdorda olib ketadi. Bordiyu ildiz g'o'za chirish kasalligiga chalinganligi yoki ko'p miqdorda kuzgi tunlam, shira va tripslar tushganligi sezilsa bunday dalalarda ko'chat normal qalinlikda bo'lishini ta'minlash maqsadida yaganalashni bir necha kun kechiktirish lozim. Bunday holda yaganalashni 2-3 chin barg paydo bo'lganda boshlash lozim.

2.Ko'chat qalinligi. Ko'chat qalinligi g'o'zaning o'sish va rivojlanish Sharoitiga, binobarin hosildorlikka hal qiluvchi ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Ko'chat siyrak bo'lsa ayrim g'o'za tuplari baquvvat bo'lib rivojlanadi va ularning har biridan ko'p hosil to'planadi, lekin gektaridan olinadigan umumiy hosil kam bo'ladi. Aksincha, ko'chat qalin bo'lsa g'o'za nimjon rivojlanadi va bu hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hosil Shoxi Chekalanmagan 1-2 tipga kirgan g'o'za navlari uchun ko'chat quyidagicha bo'lishi kerak.

-Sizot suvlari chuqur joylashgan ser qum bo'z tuproqli, Shuningdek sho'rlangan yerlarda 120-130 ming tup.

- SHo'rlanmagan sizot suvlari yuza joylashgan o'tloqi va o'tloqi-botqoqli tuproqli yerlarda 110-120 ming tup.
- g'o'za past bo'yli bo'lib o'sadigan kam unum va shag'al, qum, qumloq qatlam yuzaroq joylashgan yerlarda 130-140 ming tup.
- Shartli sug'oriladigan va suv bilan yetarli daradjada ta'minlangan yerlarda 70-80 ming to'p.

Hosil Shoxi 3-4 kenja tipga mansub bo'lgan g'o'za navlari uchun ko'chat 10-15 % kam bo'lishi kerak. Aksincha hosil Shoxi Cheklangan va nol tipga kiradigan g'o'za navlarida ko'chat 20-30% ko'proq bo'lishi kerak. Chigit kech, ya'ni 10 maydan keyin qayta ekilganda har gektarida 10-15 ming tupdan ko'proq ko'chat qoldirish tavsiya qilinadi.

Mineral o'g'itlarni yillik me'yorlarini ishlab chiqish.

Azot – o'simlik xujayrasi tarkibiga kirib, asosiy organik moddalar sintezida muxim rol uynaydi. O'simliklar tarkibidagi oqsilni asosini aminokislotalar ularning asosini esa azotli birikmalar tashkil etadi.

Etishmasligidan – o'simlik barglarining rangi to'q yashil rangdan och yashil ranga kiradi, moda sintezi yomonlashadi.

Ortib ketishi – o'simliklarni g'ovlab ketishi evaziga hayot omillaridan to'liq foydalanilmaydi.

Fosfor – O'simliklar xujayrasi tarkibiga kirib, organik va mineral birikmalar shaklida uchraydi. Organik birikmalarda nuklein kislotalar, fosfolipidlar asosan nasl tashuvchi DNK va RNK, energiya tashuvchi ATF va LMF tarkibida asosiy vazifalarni bajaradi.

Etishmasligidan – lavlagi tarkibidagi shaxar, xartoshka tarkibidagi kraxmal miqdori kamayadi va xosil sifati yomonlashadi.

Kaliy - o'simlik miqdori deyiladi va xujayra tsitoplazmasi tarkibini asosini tashkil etadi. Kaliy asosan o'simliklarni suvsizlikga, kasallik va xashoratlarga chidamliligini oshiradi.

Demak o'simliklar uchun o'ta zarur bo'lgan makro va mikro elementlarni yillik me'yorlarini ishlab chiqishda qishloq xo'jalik ekinlaridan Yuqori va sifatli xosil olishda ilmiy asoslangan me'yorlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida quyidagi omillarni xal qilishda muxim rol o'ynaydi.

Ilmiy asoslangan mineral o'g'it me'yorlarining ta'siri

- dehqonchilikni qaytarilish qonuniga amal qilishni taqozo qiladi.
- tuproq unumdorligini oshiradi.
- ekinlarni xosildorligini oshiradi.
- o'g'itlarni iqtisodiy va o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.
- atrof muxitni sofligini saqlaydi.

O'simlik talab qilgan ozuqa elementlarini ilmiy asossiz ishlab chiqishgan yillik me'yorni bir marta berish yo'li bilan uning talabini qondirib bo'lmaydi, sababi o'simliklarni turli vegetatsiya davrlarida turli xil ozuqa elementlarini turli miqdorda talab etiladi. Shuning uchun o'simliklarni biologik talabini xisobga olgan xolda o'g'itlar taqsimotini to'g'ri belgilash lozim.

O'simliklarni tuproqdan ozuqa moddalarni olib chiqib ketishi, ularning turi va naviga ham bog'liqdir.

Zamonaviy agrokimyo qishloq xo'jalik ekinlari uchun mineral o'g'itlarning yillik me'yorini ishlab chiqishning asosan to'rt usuli mavjud.

Mineral o'g'itlarni yillik me'yorlarini ishlab chiqish turlari.

1. Agrokimyoviy xartogramma asosida
2. Balans usulida
3. Xosil bilan chiqib ketadigan ozuqa elementlarini, o'g'itlarni o'zlashtirish koeffitsenti asosida
4. Rejalashtirilgan xosili asosida

Agrokimyoviy xartogramma usulidan belgilashda tuproqni ozuqa elementi bilan ta'minlanganlik darajasi asos qilib olinadi. Ushbu usulda yillik me'yorni aniqlash, fosfor va kaliy bo'yicha yillik me'yorni aniqlashda foydalaniladi. Buning uchun har 5 yilda tuproqni harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bilan

ta'minlanganligi asos qilib olinadi. (Bu haqda keyingi ma'ruzalarda to'xtab o'tamiz)

Balans usulida yillik me'yorni aniqlashda, asosan tuproqda mavjud bo'lgan hamda qo'llanilgan mineral o'g'itlarni miqdori bilan o'simliklar tomonidan o'zlashtirilib evaziga olib chiqib ketilgan ozuqa elementlar o'rtasidagi balans asos qilib olinadi.

Mineral o'g'itlarni o'zlashtirish asosida yillik me'yorni ishlab chiqishda esa, rejadagi xosil asosida chiqib ketadigan ozuqa elementlari va uni tashkil etuvchi mineral o'g'itlarni o'zlashtirish koeffitsenti asosiy omil qilib olinadi va quyidagi formula bilan aniqlaniladi:

Mineral o'g'itlarni o'zlashtirish koeffitsentining

$$K = \frac{X_u - X_s}{S} \times 100 \text{ bunda}$$

S

K – O'g'it tarkibidagi oziq moddalarni o'zlashtirish koeffitsenti, %

X_u – O'g'itlangan maydondan chiqib ketgan ozuqa modda miqdori, kg/ga

X_s – O'g'itlanmagan maydondan chiqib ketgan ozuqa modda miqdori kg/ga

S - O'g'it bilan tuproqqa tushgan oziq modda miqdori kg/ga

$$M: K = \frac{200 - 50}{250} \times 100 = \frac{15000}{250} = 60\%$$

Rejalashtirilgan xosil bo'yicha yillik me'yorni ishlab chiqishda asosiy omil rejalashtirilgan xosil hisoblanadi.

Hamma usullarda ham o'g'itlarni yillik me'yorini aniqlashda, qishloq xo'jalik ekinlarini shu ozuqa elementiga ya'ni biologik talabi asosiy ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi.

G'o'zani ozuqa elementlariga bo'lgan biologik talabi quyidagicha aniqlaniladi:

G'o'zaning biologik talabi

$$B_N = R_x \times 5$$

Bunda, B_N – g'o'zani azotga bo'lgan biologik talabi, kg/ga

R_x – rejadagi xosildorlik, ts/ga

5 – 1 ts paxta xosili bilan chiqib ketadigan azot miqdori, kg.

$$M: B_N = 30 \times 5 = 150 \text{ kg/ga}$$

Demak, 30 ts/ga paxta xosili olish uchun bir gektar maydondagi g'o'za tuproqdan 150 kg/ga sof azotni olish kerak ekan. Ma'lumki, tuproqda organik moddalar chirishdan xosil bo'lgan «Ekstra» azot mineral shaklda to'planib qolgan qoldiq azot yoki o'g'it bilan tuproqqa tushgan shakldagi azotlar mavjud bo'ladi.

Paxtadan 30 ts/ga paxta xosili olish uchun g'o'zaning biologik talabi 150 kg/ga bo'lsa, Yuqoridagi misolimizda azotni o'zlashtirish darajasi 50% bo'lsa u xolda faqat mineral o'g'it evaziga Olinadigan bo'lsa, u xolda o'zlashtirish koeffitsenti evaziga yana 50% me'yorni ($150 : 2 = 75 \text{ kg/ga}$) 75 kg/ga ni qo'shib $150 + 75 = 225 \text{ kg/ga}$ qilib belgilash lozim.

Mineral o'g'itlarni yillik me'yorini belgilashda ilmiy asoslangan tuproqlarni tipiga, mexanik tarkibiga o'tmishdosh ekin turiga va tuproqni shu ozuqa modda bilan ta'minlanganlik darajasi asosida tabaqalashtirilsa yanada aniqroq bo'ladi.

Tuproq tiplari bo'yicha koeffitsentlar:

T/r №	Tuproq tipi	Koeffitsent
1	Tipik bo'z tuproqlar	1,0
2	O'tloqi tuproqlar	0,8
3	To'q tusli bo'z tuproq	0,7
4	Och tusli bo'z tuproq	1,1
5	Engil qumoq tuproq	1,3
6	Taqirsimon tuproqlar	1,2

M: Agar misolimiz tuprog'i, to'q tusli bo'z tuproq bo'lsa, azotni yillik me'yori quyidagicha aniqlaniladi.

$$I_m = 225 \times 0,7 = 158 \text{ kg/ga}$$

Demak to'q tusli bo'z tuproq Sharoitida 225 kg/ga emas balki 158 kg/ga ni tashkil etadi.

Azotni yillik me'yorini belgilashda o'tmishdosh ekin ham asosiy omil bo'ladi, va ma'lum koeffitsent asosida aniqlik kiritiladi.

Agar o'tmishdosh ekin beda bo'lib bo'zilsa u xolda 1,2 yillari yillik me'yori 0,3 va 0,7 ga 3 yildan boshlab esa to'liq me'yor beriladi.

Olib borilgan ko'p yillik ilmiy tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha tuproq tarkibidagi nitrat jamg'armasi asosida xam tuzatish koeffitsentiga ega. Demak, azotni yillik me'yorini ishlab chiqishda tuproqdagi nitrat miqdori ham asos qilib olinadi.

Umuman mineral o'g'itlarni yillik me'yorlarini ishlab chiqish bilan birga ularni o'zlashtirish koeffitsentini yaxshilash muxim ko'rsatkich bo'lib bular quyidagilardan iborat:

Tuproqni NO₃ bilan ta'minlanganlik darajasi

T/r №	Tuproqda NO ₃ miqdori kg/ga	Koeffitsent	Biologik talabi kg/ga	Rejadagi xosil ts/ga	Azotni yillik me'yori kg/ga
1	0 – 150	1			250
2	151 – 300	0,5	45,0	30,0	125
3	300 <	0			-

Mineral o'g'itlarni o'zlashtirish koeffitsentini

yaxshilash yo'llari

- O'g'itni ilmiy asoslangan yillik me'yorini ishlab chiqish

- O'g'itlarni belgilangan muddatda berish
- O'g'itni o'simlik o'zlashtira oladigan chuqurlik va kenglikda qo'llash.
- O'g'itlarni saqlash qoidalariga amal qilish.

Xulosa: Mineral o'g'itlarning ilmiy asoslangan yillik me'yorlarini ishlab chiqishda g'o'zaning biologik talabi, o'tmishdosh ekin turi, tuproq tipi va turlari, rejalashtirilgan xosil, tuproqni oziq elementlari bilan ta'minlanish darajasi kabilar asosiy ko'rsatkichi bo'lib xisoblanadi.

3.2. Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida mexnat unumdorligini oshirish omillari.


Mehnat unumdorligi - rivojlanib boruvchi ko'rsatkichdir. U ko'pgina sabablar va omillar ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadi. Ulardan bir xillari mehnat unumdorligi oshishiga yordam bersa, boshqalari uni pasaytirishga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, mehnat unumdorligi darajasi va o'sishiga mehnat jarayoni kechadigan Sharoit ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shart-Sharoitlar qulay bo'lsa, u yoki bu omilning ta'sir etishini kuchaytiradi yoki noqulay bo'lsa, bu ta'sirni zaiflashtiradi. Masalan, tabiiy-iqlim Sharoitlari qishloq xo'jaligidagi mehnat natijalariga va uning unumdorligiga jiddiy ravishda ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish vositalarining mulkchilik shakllari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy Shart-Sharoitlar, Shuningdek, ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan Shart-Sharoitlar boshqa teng Sharoitda ham mehnat unumdorligiga jiddiy ravishda ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mehnat unumdorligi darajasi va uning dinamikasiga ko'pgina omillar ta'sir qiladi. Omillar deb mehnat unumdorligining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan harakatlantiruvchi kuchlar yoki sabablarga aytiladi. Ulardan ayrimlari mehnat unumdorligining ortishiga yordam bersa, boshqalari unumdorlikning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Omillarning birinchi guruhiga mehnat vositalarining samarasini ortishi, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish va mehnatkashlar ijtimoiy guruhlari Sharoitining yaxshilanishi bilan bog'liq bo'lgan barcha tadbirlar

kiradi; ikkinchi guruhi - tabiiy Sharoitlarning noqulay ta'sir ko'rsatishi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi kamchiliklar, ijtimoiy Sharoitdagi salbiy elementlarning ta'sir ko'rsatishi kiradi.

Fermer xo'jaliklarda omillarni qarab chiqqanda, ularning hammasini ichki va tashqi omillarga bo'lish mumkin.

2-chizma



Ichki omillarga korxonaning texnika bilan qurollanish darajasini, qo'llanilayotgan texnologiyaning samaradorligi, mehnat va ishlab chiqarishning energiya bilan ta'minlanishi darajasi, tatbiq etilayotgan rag'batlantirish tizimlarining ta'sirchanligi, kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, kadrlar tarkibining yaxshilanishi kabi korxonani rahbarlariga bog'liq bo'lgan barcha narsalar kiradi. **Tashqi omillarga** quyidagilarni kiritish mumkin: davlat buyurtmalari va bozordagi talab hamda takliflarning o'zgarishi munosabati bilan mahsulot xillari va ularning sermehnatlik darajasining o'zgarishi; jamiyat va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy

o'zgarishlari; mehnatni kooperatsiyalashuv darajasi, moddiy texnika ta'minoti tabiiy Shart-Sharoitlar va hokazolar.

Mehnat unumdorligini oshirishning moddiy asosi fan, texnika va texnologiyani rivojlantirish, ularning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishdir.

Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida mehnat unumdorligi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi jadval yordamida ko'rib chiqamiz. Bunda oxirgi uch yilda xo'jalikdagi mavjud ishchilarning mehnati tufayli yaratilgan Yalpi mahsulotni baholanadi. Mehnat unumdorligini hisoblash uchun paxta va g'alla Yalpi mahsulotini mavjud hodimlar soniga bo'lamiz. Mehnat unumdorligi bu yerda qiymat ko'rsatkichi sifatida ming so'm hisobida o'lchanadi.

12-jadval

Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida mehnat unumdorligi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar


№	Ko'rsatkichlar	o'lchov birligi	2013 y	2014 y	2015 y	2015 yilda 2013 yilga nisbatan %
1	Yalpi maxsulot	m.s	160796.8	221846	252916.8	157.3
2	Xodimlar soni	nafar	26	26	24	92.3
3	Mehnat unumdorligi	m.s	6184.5	8532.5	10538.2	170

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, paxta va g'allaning Yalpi mahsuloti miqdori 2013 yildagi 160796.8 ming so'mdan 2015 yilda 252916.8 ming so'mgacha o'zgargan yoki 157.3% ga oshgan. Xo'jalikda ishchi va xizmatchi xodimlarning o'zgarmaganligiga qaramasdan ish hajmining bir oz oshishini ta'milamoqda.1ta mehnat resursiga to'g'ri keluvchi Yalpi mahsulot ko'rinishida hisoblangan mehnat unumdorligi esa 2013 yildagi 6184.5 ming so'mdan 2015 yilda 10538.2 ming so'mgacha o'zgargan yoki 170% ga oshgan.

Barcha omillarni o'z ichki mazmuni va mohiyatiga ko'ra, uchta guruhga bo'lish mumkin: moddiy-texnika, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy. Shuning uchun ham

moddiy-texnika omillari guruhini, odatda, yetakchi va qolgan barcha omillarni belgilovchi guruh deb qaraladi.

3-chizma



Mehnat unumdorligini oshirishning **moddiy-texnika omillariga** fan-texnika taraqqiyotini uzluksiz rivojlantirish asosida mehnatning texnika va energiya bilan ta'minlanishini oshirish kiradi. Qishloq xo'jaligida paxta va g'alla yetishtirish uchun chopiq va transport traktorlari, ularning kultivator, plug, chizel, o'g'it solgich va ariq qazigich kabi agregatlarining, sug'orish uchun suv nasoslari va lotok-ariqlarning hamda bug'doy o'rish uchun kombaynning mavjud bo'lishi talab etiladi. Nihol fermer xo'jaligida hozirgacha chopiq traktori va kultivator agregati, pritsep mavjud. Moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash uchun Yuqoridagi

agregatlar va kombaynni lizing asosida olishga erishish kerak. Ishlab chiqarishni kimyolashtirish; butunlay yangi texnologiyalarning yaratilishi (ular ishlab chiqarish intensivligini oshirishni ta'minlaydi va jonli mehnat sarfini keskin qisqartiradi); ishlab chiqarishga material sarflanishining pasayishi va moddiy resurslarning tejallishi ham mehnat unumdorligini oshirishning moddiy-texnika omillariga kiradi. Moddiy - texnika omillari ta'siri natijasida mehnat unumdorligi ortadi va mahsulotning sermehnatlik darajasi pasayadi.

Moddiy - texnika omillari ta'siri natijasida mehnat unumdorligi ortadi va mahsulotning sermehnatlik darajasi (t) pasayadi. Sermehnatlik darajasi ko'rsatkichi bo'yicha mehnat unumdorligining o'sishi quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$M_y = \frac{M_{cm} \times 100}{100 - M_{cm}} \text{ yoki } M_y = \frac{M_{cm} \times 100}{C_{cm} - M_{cm}}$$

Bu yerda M_y - mehnat unumdorligining oshishi, %;

M_{cm} - mahsulot birligi sermehnatlik darajasining pasayishi, %;

C_{cm} - tadbirni joriy etishdan oldin mahsulot birligini uchun zarur bo'ladigan boshlang'ich sermehnatlik darajasi.

Mehnat unumdorligining o'sishiga doir **tashkiliy omillariga** fermer xo'jaligi darajasida ishlab chiqarishni tashkil etish kiradi. Xususan, xo'jaliklarni ekin turi bo'yicha ixtisoslashtirish, transport xizmatlari bilan ta'minlash, xo'jaliklarning turli resurslardan foydalanish uchun keyinchalik kooperatsiyalashuvi; moddiy-texnika, energiya ta'minoti, ta'mirlash xizmati ko'rsatish va hokazolar katta ahamiyatga egadir. Bundan tashqari biznes-rejalarni takomillashtirish; ishlab chiqarishni tashkiliy-texnik jihatdan tayyorlashni tashkil etish; yangi texnologiyalarni o'z vaqtida joriy qilish; mashinalar, mexanizmlarni joriy va kapital ta'mirlashni ta'min etish, Shuningdek, fermer xo'jaligida moddiy-texnika ta'minotini to'g'ri tashkil etish.

Barcha tashkiliy omillar bir-biri bilan mustahkam bog'langan bo'lib, ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkil etishning yagona tizimini hosil qiladi.

Ulardan to'liq foydalanmaslik, turli tashkiliy kamchiliklarning mavjud bo'lishi asosan ish vaqtidan foydalanishda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tashkiliy omillar tizimida Muxtorjon yerlari fermer xo'jaligida kadrlar tarkibining yaxshilanishi - boshqaruv xodimlari sonining nisbiy qisqarishi va xodimlari umumiy sonida ishchilar salmog'ining ortishi muhim o'rin tutadi. Shuning uchun bevosita fermer xo'jaligi boshlig'ining o'zi ham paxta yetishtirish agrotexnik tadbirlarini bajarishda qatnashishi kerak. Xodimlari umumiy sonida ishchilar salmog'i qanchalik Yuqori bo'lsa, bitta xodimga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligi ham Shunchalik Yuqori bo'ladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning mehnat faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi - muayyan natijani qo'lga kiritishga bo'lgan qiziqishdir. U o'z navbatida ishlab chiqarish ishtirokchilari bo'lgan insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish qatnashchilari muayyan mehnat faoliyati natijasini qo'lga kiritishga intilishi bilan bir qatorda yetarli darajadagi mehnat qobiliyatiga, ishbilarmonlik va shijoatkorlik kabi zarur shaxsiy sifatlarga ega bo'lishlari, Shuningdek, tadbirkor bo'lishlari lozim. Mehnat unumdorligiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy omillarga quyidagilar kiradi:

- mehnat natijalaridan moddiy va ma'naviy manfaatdorlik;
- xodimlarning malaka darajasi, ularning kasbiy tayyorgarligi sifati
- mehnatga munosabat va mehnat intizomi darajasi;
- mehnat jamoalari o'z-o'zini boshqarishining rivojlanishi.

Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning omillaridan biri tuproq unumdorligini oshirishdir. Iqtisodiyotni erkinlashtirish Sharoitida iqtisodiy unumdorligini oshirish maqsadida yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilashni ta'minlovchi tadbirlarni kompleks amalga oshirishni rivojlantirish juda muhim muammo hisoblanadi. Bu muammoni yechishda davlat bosh ijrochi bo'lishi lozim. Agarda bu muhim tadbir fermer xo'jaliklariga to'liq yuklansa, bajarilmasligi muqarrar. Chunki ularning texnik, iqtisodiy quvvati yetmaydi.

Davlatning esa texnik, iqtisodiy imkoniyati ulkan. Xo'jaliklar yerlarining meliorativ holatini yaxshilashda irrigatsiya va melioratsiya davlat hissadorlik tashkilotlari xizmat qilib, ulardan o'z haqlarini olishni ta'minlaydigan iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'yish lozim.

Mehnat resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish uchun Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligining moddiy texnika ta'minotini yaxshilash, maxsus ma'lumotli hodimlarning salmog'ini oshirish, yerdan samarali foydalanish, mineral o'g'itlardan ilmiy asoslangan tartibda foydalanish kabi bir qator imkoniyatlarni ishga solish zarur. Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish uchun yer-suv munosabatlarini takomillashtirish, ya'ni liberallashtirish masalalarini hal etishni tezlashtirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun yer va suvning baholarini va ulardan foydalaganlik uchun to'lanadigan haqlarni, soliqlar miqdorini real aniqlash lozim. Bunda bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga asoslanish, Shuningdek, yer va suv resurslarining cheklanganligi, takror ishlab chiqarilmasligi, holati, sifati, iste'molchilarga uzoq-yaqinligi, ishlab chiqarish vositalari hamda infratuzilmalar bilan ta'minlanganligi, olinayotgan mahsulot, foyda summasi kabi ko'rsatkichlarni ham e'tiborga olish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bitiruv Malakaviy ishini tayyorlashda Izboskan tumanida faoliyat ko'rsatayotgan Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish atroflicha o'rganish va taxlil etish asosida quyidagi fikr va muloxazalarga keldik:

Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligini tashkiliy-iqtisodiy ma'lumotlari bilan tanishib ularni taxlil qilish bilan bir qatorda hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida fermer xo'jaliklari faoliyatidagi tarkibiy o'zgarishlar xamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samardorligini oshirish yuzasidan qabul qilinigan xuquqiy me'yoriy xujatlar talablarini bajarilishi nuqtai nazardan fermer xo'jaligi raxbar va mutaxassislarini aloxida fikr va muloxazalarini o'rgangan xolda istiqbolda Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligi mehnat unumdorligi barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini yaratadi.

Mehnat unumdorligi mehnat salohiyati samardorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri. Chunki bozor iqtisodiyoti Sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy faoliyati aynan shu ko'rsatkich miqdoriga bog'liq.

Mehnat unumdorligi bir vaqt birligida (kun, oy, chorak, yil) bir xodim tomonidan yaratilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi bilan o'lchanadi. Bu ko'rsatkich natijani xodimlarni o'rtacha soniga (vaqt birligiga) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$Mehnatunumdorligi = \frac{\text{yalpi mahsulot}}{\text{hodimlar soni}}$$

Fermer xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning iqtisodiy samardorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar hodimlar soni va ular orasidagi maxsus ma'lumotlilar salmog'i, hodimlarning asosiy va aylanma fondlar bilan qurollanganligi, 1 hodim hisobiga yaratilgan yalpi mahsulot, 1 birlik mehnat harajatlari evaziga yaratilgan Yalpi mahsulot kabilar hisoblanadi.

Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligi asoson paxta va don yetishtirishga ixtisoslashganligi tufayli maxalliy axolini bu turdagi ekinlardan Yuqori xosil olish bo'yicha ko'nikmalari yetarli.

- fermer xo'jaligi paxtachiligida mexnatni ilmiy asosda tashkil etish asosida mexnat unumdorligini oshirish yo'llarini takomillashtirish:

- Fermer xo'jaligini ishlab chiqarish munosabatlarini tartibga solish va modernizatsiya qilish orqali mexnat resurslaridan samarali foydalanish:

- Fermer xo'jaligi paxta va g'alla maxsulotlarini yetishtirish uchun samarali texnikalarni, ilgor texnologiyalarni ishlab chikarishga joriy etish;

- Fermer xo'jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jaroyonini amalga oshirish maksadida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ishlab chiqarishga jalb etishni rivojlantirish;

- Fermer xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni paxta va g'alla yetishtirish bo'yicha optimal darajaga ko'tarish Chora-tadbirlarini ko'rish zarur.

- Fermer xo'jaligini mexnat unumdorligini oshirish uchun modernizatsiyalash asosida xujalikni MTB ni mustaxkamlash va ishlab chikarishni tula mexanizatsiyalashga erishish.

- Mexnat jamosi tarkibini tubdan yaxshilash, maxsus malakaviy tayyorgarlikka va ko'nikmaga ega bo'lgan xodimlar xissasini keskin oshirish. Ishlab chikarishga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etilishiga mos xolda xodimlar sonini avvalo malakasis xodimlarni kiskartirish orqali mexnat unumdorligiga erishish;

- Fermer xo'jaligini ishlab chikarishni diversifikatsiyalash asosida ko'p tarmokli xo'jalikka aylantirish asosida mexnat unumdorligiga erishish;

- Fermer xo'jaligida irrigatsiya va melioratsiya xamda ishlab chikarishni mexanizatsiyalash, kimyolashtirish va dexkonchilik madaniyatini oshirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni samarali hal etilishini ta'minlash orqali mexnat unumdorligini oshirishga erishish;

- Ishchi va xizmatchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yaxshilash ularning moddiy manfaatdorligini oshirish sababli mexnat unumdorligiga erishish;

Yuqoridagi barcha Chora-tadbirlarni o'zida jamlagan holda «Izboskan xirmoni baraka» fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari paydo bo'ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xukukiy me'yoriy xujjatlar

O'zbekiston Respublikasi konunlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T. O'zbekiston 2003 y
2. O'zbekiston Respublikasining yer Kodeksi. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'grisidagi qonun hujjatlari. 1-kitob. – T.: 1999.
3. O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni. «Xalq so'zi». 2004 yil 27 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining Davlat yer kadastri to'grisidagi qonuni O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'grisidagi qonun hujjatlari. 3-kitob. – T.: 1999
5. O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining Shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni. 1998 yil 29 avgust.
6. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. T.: 1996.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risida»gi farmoni. Xalq so'zi. 2003 yil 28 oktyabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish Chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. Xalq so'zi. 2003 yil 31 oktyabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 dekabrda 607-sonli «2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish Chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. Xalq so'zi. 2004 yil 24 dekabr.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktyabrdagi PF-3077-son «Fermer xo'jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish Choralarini ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha maxsus komissiya tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 oktyabrdagi "Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish

Chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3287 sonli Farmoyishi.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilda iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishning eng muxim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma'ruzasi Xalq so'zi 19.01.2012 y

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 18.01.2014 00:28

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustivor vazifamizdir ma'ruzasi

15. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qabul Qilinganining 22-Yilligiga Bag'ishlangan Tantanali Marosimdagi Ma'ruzasi 05.12.2014

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi 16.01.2016

II. Kitob va turkum nashrlar

1.Q.X.Abduraxmonov Mexnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi (darslik)Toshkent 2012yil.

1. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A. A. "Qishloq xo'jaligi iktisodiyoti". - T.: "TDIU", 2004.

2. Vaxabov A.V. Qishloq axolisi turmush darajasini oshirishda bank tizimining o'ri. Qishloq tarakkiyoti va axoli turmush darajasini oshirishda bank-moliya tizimining o'ri. Xalkaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. -

Toshkent: Moliya, 2009. - 322 b.

3. Vaxobov A.V., Abdullaev YO.A. Jaxon moliyaviy-iktisodiy inkirozi, O'zbekiston Sharoitida uni bartaraf etishning yullari va choralari. uquv qollanma. T.: "IQTISOD - MOLIYA", 2009. - 192 b.

4. Olimjonov O. va boshqalar. Fermerlik faoliyatining asoslari va ishlab chiqarishni tashkil etish. - T.: "Sharq", 2003, -270 b.

5. Salimov V.T. va boshqalar. "Fermer va dehqon xo'jaliklari iqtisodi". - T.: "TDIU", 2004, 124 b.

6. Salimov B.T., va boshk., «Dexkon va fermer xo'jaliklari iqtisodi», T.: «O'zbekiston YOzuvchilar uyushmasi adabiyot Jamg'armasi», 2004.

7. Savitskaya G.V. «Analiz proizvodstvenno-finansovoy deyatelnosti sel'skoxozyaystvennux predpriyatii», M.: INFRA, 2003

8. Umurzoqov U.P., Toshboyev A.J., Toshboyev A.A. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. T.: "IQTISOD- MOLIYA" 2007. - 226 b.

9. Pindayk R., Rubinfeld D. Mikroiktisod. - T.: «Shark», 2004.

10. Nasritdinova S. Makroyekonomika. Kurs lektsiy. -T.: "IQTISOD- MOLIYA", 2008. - 224 s.

11. Kovalev V.V, Volkova O.N. Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya. UChebnik.M, Prospekt, 2002.

12. Farmonov T.X. Fermer xujaliklarini rivojlantirish istiqbollari. -T.: "YAngi avlod", 2004, 143 b.

13. Xakimov R., va boshq. «Agrosanoat majmui iqtisodi», T.: «O'zbekiston YOzuvchilar uyushmasi adabiyot jamFarmasi», 2004.

14. Xusanov R.X., MDosimov. «Dexkon xo'jaligini yuritishning ilmiy va amaliy asoslari», T.: CHulpon, 2000.

15. Xodiyev B., Bekmurodov A., Gofurov U., Tuxliyev B. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jaxon moliyaviy-iktisodiy inkirozi, O'zbekiston Sharoitida uni bartaraf etishning yullari va Choralari" nomli asarini urganish bo'yicha ukuv kullanma. T.: Iktisodiyot, 2009. - 120 b.

III. Choriyev K., Berkinov B. Dexkon va fermer xo'jaliklarini tashkil etish va

yuritishning xukukiy - me'yoriy asoslari, T.: Shark, 2002.

17. Izboskan tumanidagi Izboskan xirmoni baraka fermer xo'jaligining 2013-2015 yillardgi biznes rejalari, yillik hisobotlari va boshqa ma'lumotlar.

IV. Statistik tupamlar va internet saytlar

- O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi. - T. 2000 2011.

16. Finansy Uzbekistana: statisticheskiy sbornik - T. 2000-2011.

17. Finansy Uzbekistana. 2008 god. statisticheskiy sbornik . - T. 2008.

18. Internet veb - saytlari <http://www.rambler.ru> <http://www.tfi.uz>
<http://www.ser.uz>